

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI
JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: XIX asr oxiri XX asr boshlarida Afg'onistonda
ingliz-rus raqobatchiligining tarixi**

Bajardi: “Xorijiy mamlakatlar tarixi”
ta'lim yo'nalishi bitiruv kurs talabasi
Umirzoqov Jasur

(ИМЗО)

Ilmiy rahbar: “Xorijiy mamlakatlar
tarixi” kafedrasi katta o'qituvchisi
K.K.Hamidova

(ИМЗО)

TOSHKENT 2014

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Jahon siyosati va tarix”
Fakulteti dekani
s.f.n., dotsent. I.N.Bekmuratov

«__» _____ 2014 yil

“Xorijiy mamlakatlar
tarixi” kafedrasi mudiri
t.f.n Y.A.Ismoilova

«__» _____ 2014 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	4-9
I BOB. ANGLIYA VA ROSSIYANING AFG'ONISTONDA OLIB BORGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI TARIXI	
1.1. Afg'onistonda ingliz rus raqobatchiligining paydo bo'lishi tarixi.....	10-22
1.2. Afg'onistonda ingliz siyosatining o'zgarishiga olib kelgan omillar va ikkinchi ingliz afg'on urushi.....	23-38
II BOB. XX ASR BOSHLARIDA AFG'ONISTON UCHUN INGLIZ-RUS RAQOBATCHILIGINING YANGI BOSQICI VA OQIBATLARI	
2.1. XX asr boshlarida Afg'oniston uchun ingliz-rus raqobatchiligi	39-51
2.2. Afg'onistonning mustaqillikka erishishida tashqi omillarning roli	52-57
2.3. Afg'onistonning siyosiy mustaqillikka erishgandan so'ng ingliz rus raqobatchiligi	58-70
XULOSA.....	71-73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	74-78

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi davrda afg'on muammosi va uni keltirib chiqargan tub sabablar hamda ularning oqibatlari to'g'risida Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlar va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida chuqur konseptual xulosalarni bayon qilgan edi. Asarda takidlaganidek, "Afg'onistondagi tanglikning chuqurligi va keskinligini, uning mintaqaviy va dunyo miqyosidagi jug'rofiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirini e'tiborga olib, bu fojiani ko'lam va xavfi jihatidan hozirgi dunyoning eng kata mintaqaviy mojarolar jumlasiga kiritish mumkin"¹. Bu mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy, harbiy vaziyat o'ta murakkab holatda turibdi. Vaziyatni anglash va shu yo'sinda chora tadbirlarni qo'llashimiz kerak"². Darhaqiqat afg'on muammosiga XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda Angliya va Rossiya raqobatchiligi o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan.

Tarixiy voqelik to'g'ri anglab olingandagina tarixiy shaxslar roli va xizmatlari yaqqol bilinadi. Bundan tashqari tadqiq qilinayotgan mavzu va makon haqida ham to'g'ri va aniq tasavvurga ega bo'lish nihoyatda muhim. Shu ma'noda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi, mag'zini chaqishda eng avvalo, o'sha zamondagi jahon siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy manzarasini bilib olishga to'g'ri keladi. Demak, biz, avvalo, ana shu "o'yin maydoni" dagi ahvolni, past balandliklarni, qonun-qoidalarini bilib olishimiz kerak. Shundagina ingliz va ruslar har bir muayyan vaziyat yo masalada tutgan siyosati va yondashuvining sabablarini ko'ra olamiz. Ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi ham ana shundadir. Bu o'z o'rnida Afg'onistonning o'sha davrda tashqi siyosati va diplomatiyasining mohiyatini anglash uchun yo'l ochib beradi.

Ishning maqsad va vazifalari. Ishning bosh maqsadi XIX asr oxiri XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi asnosida Afg'oniston

¹ Karimov I. A. "XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". – T. O'zbekiston. 1997. 21-bet.

² Karimov I. A. "O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak" T. O'zbekiston. 2013. 27-bet.

diplomatiyasini tarixiy, tahliliy nuqtai nazardan yalpi o'rganishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan

1. "Katta O'yin" va "Salobatli yurishlar" tushunchasining kelib chiqish tarixini ochib berish;
2. Tarixiy manbalar va adabiyotlarga tayangan holda Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligini mazmuni, shakllanish jarayoni, tadrijiy rivojini aniqlash;
3. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi natijasida yuzaga kelgan shartnoma va kelishuvlarni o'rganish va tahlil qilish;
4. Afg'oniston davlatining xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarini yoritish;
5. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonning Angliya va Rossiya bilan diplomatic aloqalarni o'rganish va ularni hozirgi Afg'onistonda yuz berayotgan diplomatik jarayonlar bilan solishtirish;
6. Afg'oniston davlati ingliz-rus raqobatchiligiga bo'lgan munosabatini o'rganish va yoritib berish;

Afg'oniston davlatchilik tarixi ming yillar ichida yuz bergan son-sanoqsiz voqealar, xorijdan kelgan yog'iyllarning xurujlari, yuksalish va tanazzul davrlariga qaramay, uzluksiz davom etgan jarayondir. Tabiiyki, bu davr ichida afg'on davlatchiligining tarkibiy qismi, uning ajralmas atributi bo'lgan diplomatik munosabatlar ham izchil suratda davom etib kelgan. To'g'ri, u ma'lum voqealar ta'sirida ayrim hollarda sussaygan, ba'zi vaqtlarda muvaffaqiyatsizliklar girdobiga duch kelgan, lekin hamma vaqt o'z shakl va mazmunida qadimiy afg'on urf-odatlar, Afg'onistondagi azaliy o'troq hamda ko'chmanchi xalqlarning bu sohadagi an'alarini davom qildirgan, uni turli shakl va ko'rinishlarda o'zida aks ettirib kelgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus tomonlaridan amalga oshirilib kelingan diplomatik munosabatlar ularning o'rtasida "Katta O'yin" deb yuritib kelingan. Bu tushuncha juda keng qamrovli ma'noga egadir.

Mazkur ishda asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi tadqiq qilindi. Lekin bu davr raqobatchiligining kelib chiqishi va evolyutsiyasini aniqlash maqsadida uzoq davrlarga ham murojaat qilinadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligining tarixiga oid manbalar va adabiyotlar xorijda ko'plab e'lon qilingan. Masalan, ingliz tilida 1962-yilda New Yorkda, 1990-yilda Londonda chop etilgan Afg'onistonga oid hujjatlar va maktublar majmualarida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligiga oid juda ko'plab yozishmalar o'z aksini topgan¹. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi hamda diplomatik hujjatlar Londonda chop etilgan qator tarixiy asarlar sahifalaridan ham o'rin olgan. Angliya tarixchilaridan Loyn, Davidlar "Afg'onistondagi chet davlatlarning ikki yuz yillik tarixi"², Singer va Andrelarning "Haybar amirlari: shimoliy-g'arbiy chegaralarning tarixi"³, Jigalina O. I. "Buyuk Britaniya o'rta sharqda. "XIX – XX boshlarida: tashqi siyosiy konsepsiyning tahlili"⁴ nomli asari, Robson, Brianning "Chegaradagi tanazul: Uchinchi ingliz-afg'on urushi va Vaziristondagi 1919-1920-yilgi yurishlar"⁵, Romodin V. A. "XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'oniston: Rasmiy tarixi va rariyshunosligi"⁶ nomli asarlar ana shu muhim muammoning ba'zi jihatlarini yoritishga qaratilgan ishlar dastlabki qadamlar sifatida baholanishi mumkin.

Ko'pchilik voqealar, mavjud diplomatik yozishmalar, iqtisodiy-siyosiy ahvolga doir xilma-xil hodisalar tilga olinganki, bunday xabarlarni boshqa

¹ Wilkinson-Latham, Robert "North-West Frontier 1837–1947". Men-at-Arms Series # 72. London: Osprey Publishing, 1998, ISBN 0-85045-275-9 va Molesworth, George "Afghanistan 1919—An Account of Operations in the Third Afghan War". New York: Asia Publishing House,(1962). OCLC 7233999.

² Loyn, David "Butcher & Bolt: Two Hundred Years of Foreign Engagement in Afghanistan", London: Windmill Books, 2009, ISBN 978-0-09-952263-8.

³ Singer, Andre "Lords of the Khyber: The Story of the North-West Frontier". London: Faber and Faber,1984, ISBN 978-0-571-11796-3.

⁴ Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990.

⁵ Robson, Brian. Crisis on the Frontier: The Third Afghan War and the Campaign in Waziristan 1919–1920. The History Press, 2007, ISBN 1-86227-403-7.

⁶ Ромодин В. А. Афганистан во второй половине XIX – начале XX вв.: Официальная история и историография. М., 1990.

manbalarda uchratish qiyin. Ayniqsa, afg'on amirlarining huzuriga yo'naltirilgan messiyalar, ularni qabul qilish tartib-qoidalari, davlat hududida ular uchun yaratilgan qulayliklar haqidagi batafsil ma'lumotlari, afg'on amirlari tuzgan davlatning tashqi aloqalari, uning turli mamlakatlar bilan olib borgan diplomatik munosabatlari haqida qimmatli ma'lumot sifatida g'oyat katta e'tiborga molidir. Xuddi shuningdek, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi natijasida afg'on mamlakatini zabt etish uchun uyushtirgan yurishlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan ularni bevosita kuzatish imkoniga ega bo'lgan afg'onistonlik tomonidan yozib qoldirilgan yana bir necha asarlar ham borki, ularning har biri o'z navbatida o'sha paytda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligiga ayrim hollarda Afg'oniston davlatiga nisbatan olib borgan siyosatini aniqlashda mutaxassislar uchun yangi ma'lumotlar berishi mumkin. Afg'on tarixchisi Iqbol Alishoh "Omonulla fojeasi"¹ kitobi, afg'on tarixchisi Burhoniddin Kushkekiy "Nodiri Afg'on" "Glazgo Gerald" nomli ingliz gazetasining 1921 yil 7 aprel soni ana shunday manbalar qatoriga kiradi². Pushtu tilida asarlar yozgan mashhur yozuvchi va shoir, Afg'onisgonning mustaqillik uchun olib borgan urushi qatnashchisi Soubemli Sarhad Muhammadxon Mir Hiloliy 1957—58 yilda Peshovarda nashr etilgan "Nangiyali pushtana"³ kitobida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligiga oid qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Bundan tashqari, o'z davrida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi va afg'on amirlarining boshqa mamlakatlarga nisbatan yuritgan munosabatlari, uning tashqi siyosatining qirralarini o'zida aks ettirgan juda ko'plab hujjatlar Yevropa qit'asining turli qismlaridagi davlat va shaxsiy arxivlarda saqlanib turganiga shubha bo'lishi mumkin emas. Ular o'sha vaqtda afg'on davlatiga yuborilgan maxsus vakillar yoki minglab hufiyalarning o'z hukumatlariga yozma ravishda yuborib turgan axborotlaridan iborat bo'lib, bu taxlitdagi materiallar o'z-o'zidan ma'lumki, bosib

¹ Iqbol Alishoh "Omonulla fojeasi",

² Burhoniddin Kushkekiy "Nodiri Afg'on" "Glazgo Gerald" nomli ingliz gazetasining 1921 yil 7 aprel soni.

³ Soubemli Sarhad Muhammadxon Mir Hiloliy "Nangiyali pushtana", Peshovar, 1957-1958 yilda.

chiqarishga mo'ljallanmagan. Ularni qidirib topish, ilmiy tadqiqotlar doirasiga kiritish Afg'oniston tarixi mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ammo yuqorida zikr qilingan manbalarda ham XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi tarixi haqida qimmatli materiallar jamlanganki, ularga asoslangan holda bu borada ushbu mavzu yuzasidan yetarli darajada fikr yuritish mumkin deb o'ylaymiz.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi tarixini yoritish, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Afg'oniston davlati diplomatiyasi tarixini tadqiq etish, uning afg'on jamiyatiga va mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotiga ta'sirini aniqlanishi ishning asosiy tadqiqot obyekti tashkil qiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda tarixi haqidagi ilmiy jihatdan asoslangan fikr-mulohazalarni tahlil etish, har tomonlama to'g'ri yondashuvga binoan ingliz-rus raqobatchiligi tarixini yoritish ishning predmetini tashkil etadi.

Ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi tarixini tahlil qilish masalalari tadqiq qilindi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi tarixini tarixiy ahamiyati va uning keyingi davr davlatchilik tarixi uchun kerakli tomonlari haqidagi fikrlar o'rganib chiqildi.

Ushbu mavzu o'ta dolzarb bo'lib, afg'on xalqining milliy iftixori, milliy g'ururi va milliy qadriyatlarini tiklash borasida qilinayotgan ishlarning bir debochasi desak adashmagan bo'lamiz. Zero, Prezidentimiz ta'birlaricha “Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish qurol kuchidan ko'ra o'n baravar foydaliroqdir” – degan dono so'zlar Amir Temurga mansubdir¹. Bu so'zlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yo'li bilan hal qilishni bildiradi”– degan edilar. Haqiqatdan ham biz XIX asr oxiri va XX asr

¹ Каримов И. А. ЮНЕСКО қароргоҳидаги “Темурийлар давридаги илм-фан, маданият ва маорифнинг гуллаб яшнаши” кўргазмасининг очилиш маросимида сўзланган нутқ, 1996 йил 24 апрель, Париж.

boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligi tarixidan ko'p narsani o'rgansak bo'ladi

Nazariy metodologik asoslari. Mavzuni o'rganish jarayonida yangicha fikrlash hamda ilmiy tafakkurning umumbashariy tamoyillariga, bo'lib o'tgan voqealarni o'zaro dialektik aloqadorlikda deb qarashga asoslanildi. Mavzuni yoritishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga, milliy mafkura nuqtai nazaridan yondashishga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda tarixiylik, xronologik uzviylik, tarixiy-qiyosiy tahlil metodlariga amal qilindi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligining nazariy asoslariga e'tibor berishda asosan, tarixiy qarashlar va uslublarga ham jiddiy e'tibor berildi. Ushbu tadqiqotni yoritishda Prezident I. A. Karimov asarlari, nutq va ma'ruzalarida ta'kidlangan, ilgari surilgan fikr va g'oyalar asosida xulosalar chiqarishga harakat qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Ushbu bitiruv malakaviy ishi "XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligii tarixi" deb nomlandi va kirish, 3-bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat qilib belgilandi.

I BOB. ANGLIYA VA ROSSIYANING AFG'ONISTONDA OLIB BORGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI TARIXI

1.1 Afg'onistonda ingliz rus raqobatchiligining paydo bo'lishi tarixi

Afg'oniston uchun ingliz rus raqobatchiligining paydo bo'lishi tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun biz birinchi navbatda “Katta o'yin” va “Salobatli yurishlar” (dev yurishlari) deb nomlangan bir tarixiy-siyosiy jarayon haqida so'z yuritishimiz darkor. Eng avvalo yurtboshimizning “ Har bir xalq vakili o'z mamlakatida bo'layotgan islohatlarga befarq bo'lmasliklari kerak”¹ degan so'zi bilan boshlamoqchiman. Chunki XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda ingliz-rus raqobatchiligida afg'on millatiga mansub vakillar bu jarayonlarda o'zini olib qochganliklari keltirib o'tiladi.

Bu davr boshlanishidan oldin XIX asr tarixi va siyosiy jarayonlarida “Salobatli yurishlar” va “Katta O'yin (great game)” deb nomlangan bu ikki atamaning o'rni haqida alohida ta'kidlar va izohlar berib o'tilishi kerak deb o'ylayman. U haqidagi to'liq ma'lumotlar haqida quidagi fikrlarda va matnda yoritib beramiz.

“Katta o'yin” ning haqiqiy o'yinchilari hisoblangan Rossiya va Angliya hukumatlari tomonidan Afg'onistonda va boshqa hududlardagi podsholarni, amirlarni, shahzodalarni, sardorlarni va xonlarni qo'ldan bermay o'z ishlaringa tobe qilishga harakat qilganlar. Bu o'yin o'z ichiga Londondan Sant-Peterburgacha, Afg'onistondan Istanbulgacha va Kalkutttagacha bo'lgan barcha daryolar, tog'lar, sahrolar va shaharlarni qamrab olgan edi. Bu o'yin natijasida mustamlakaga aylantirishni imperialism darajasiga ko'tarilishi yuzaga keldi va shu davrgacha bo'lgan tarix ichida hech qachon sodir bo'lmagan bir silkinish va gumburlashni yuzaga keltirdi². Ikkinchi termin hisoblangan “Salobatli yurishlar” haqida ruslar

¹ I.Karimov “O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak” T. O'zbekiston 2013 b. 14-15.

² Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990 с.65-67.

Sant-Peterburgda “Niva” daryolari atrofidan Markaziy Osiyo tomonga harakatlanishi va Kavkazni egallagandan so’ng Markaziy Osiyoga qarashli mintaqalarni o’z oyoqlari ostiga tashlaganliklarini aytadi. Bu termin ruslar uchun mustamlakachilik yurishlari bo’ldi va ruslarning yurishlari inglizlar Panjobning janubiy tarafidan Sind daryosi havzasi va Bulijistonni o’z saltanati tarkibiga kiritgan bir paytda nihoyasiga yetdi¹.

“Katta o’yin”da asosiy o’rinni Buyuk Britaniya egallaydi. Birinchi ingliz-afg’on urushidan hozirgi kungacha u yerda tashqi harakatlarda Britaniya Hindistoni o’rtasida hukmronlik uchun bir geopolitik kurash, 19-asr va 20-asrdan “Katta O’yin” nomini olgan bir jarayon yuzaga kelgan edi. Asosiy o’yinlar Afg’onistonda harbiy zaruriyat bilan bog’langan zamonaviy tasvirlardan Richard Morton Taylor tomonidan teatrda e’lon qilingan bu ishga bosh qosh bo’lganligi haqida aytilib o’tilgan bo’lib, bu butun Yevropa va Osiyo mintaqalarida yuzaga kela boshlagan edi. Hamda uning kelib chiqish tarixi haqida monologik va dialogik jihatdan bog’likligini ochib o’tgan edi. Shuningdek, Villian Dalrymple Hillari Clinton, Stanley Mc Chrystal va David Richardlar kabilar fikrlariga ko’ra 19- asrning ikkinchi yarmida “Rossiya ayig’i” va “Britaniya Sheri” tomonidan dunyo davlatlarini o’z ta’sir doirasiga solishidagi harakatlarga nisbatan aytilgan edi. “Katta o’yin”dek nom olgan bu termin shafqatsizlikdek tuyiladi, ammo Britaniya Hindistoniga tahdid solgandan so’ng buni to’xtatishga harakatlar boshlagan edi. Ikki mamlakat o’rtasidagi raqobat Britaniya matbuotida “Katta O’yin” deb nomlandi. Bu Yevropadan to Yaqin Sharqgacha tarqatilgan edi. Hamda butun dunyo bu haqidagi yangi ma’lumotlarga ega bo’lishga muyassar bo’lgandi. Hindiston chegarasidan Afg’oniston va Tibetga Britaniya harbiylari bostirib kirishni xohlamagan edilar, lekin bu hududlardagi siyosiy jarayonlar bizning sarhadlarimizga tahdid solayotganligi va ularning biz bilan do’stlik munosabatlariga rozi bo’lmaganliklari bu ishlarimizga sabab bo’ldi deb aytib

¹ Жигалина О. И. Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций, М,1990. С ,73-74.

o'tadi¹. Lekin bu qilingan barcha ishlarda hech qachon muvofaqiyatga erisha olmagan edilar.

XVIII asr boshlaridan XIX asr o'rtalarigacha Rossiya Hindistonga davo qilishi boshlandi va vaqt o'tishi bilan surinkali o'sishi zo'raydi. Rossiyaning Hindiston tomonga yurishi 1725 yilda boshlandi deb yozadi². Shunday bo'lsada XIX asrga kelganda Rossiya yetakchiligi sekinlasha boshlandi, ammo Hindiston chegaralari atrofidagi o'z harbiy ba'zalari mustahkamlangandi. Bora-bora 1850-yilgacha Britaniya va Rossiya Imperiyalari o'rtasidagi masofa ming milgacha qisqarib bordi. Shunday qilib bu o'rtadagi jarayonlar shu qadar yuzaga kela boshlangan edi. Bundan Afg'oniston ham mustasno qolmadi, chunki Hindiston va Rossiya Imperiyasi o'rtasidagi chegarani shu davlat tomonidan to'sqinlik qilinar edi. Rossiya va Britaniya Imperiyalari taqdiri oxirida "Katta O'yin" jarayonlari Yevropada qaror topadigan bo'lgandi. Bular uchun Eron va Afg'onistonning muhimligi shundan iborat ediki, Britaniya Rossiyaning Hindistonga yaqinlashib qolishidan qo'rqardi. Rossiya ham Turkistonga yaqinlashishidan qo'rqar edi. Eron va Afg'oniston sharqida yashovchi kishilar aytadi: "tog'li urug' qabilalari o'rtasida tinchlikni ta'minlash maqsadida bu davlatga kirishga harakat qila boshlangan edilar"³. Afg'onistonning xavfsizligidan bezovtalangan Britaniya dastlab Sant-Peterburg bilan muzokaralar olib borish uchun harakat qilishga qaror qilgandi va Rossiyaning ta'siri kuchayib ketishi aynan ushbu paytlarda unga mutloq joylashishidan tashqari o'zini bu davlatdan himoya qilishi kerakligi to'g'risida Afg'oniston bilan suhbatlashgan edi va aynan manashu paytda afg'on siyosiy rahbarlarini ishontirishga harakat qilgan edi.

1868-yildan 1874-yilgacha Kulidistonning birinchi kotibiyatida Hindiston tashqi ishlar vaziri bo'lgan Divok Argilning aytishlariga qaraganda "Biz ruslarning Markaziy Osiyoni egallashi yuzasidan ancha harakat qilgan "Salobatli yurishlar"dan bir ikkita ma'lumotlar va suhbatlarni ochiqchasiga bayon qilamiz. Buni biz mustamlakachilikning tasviri va ta'rifi sifatida hisoblaymiz va ruslarning

¹ عزیز نعیم. افغانستان مرکز ثقل بازی بزرگ، مقاله افغانستان آزاد، شماره سوم پشاور، 10

² Barthorp, Michael (2002) [1982]. *Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947*. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8. P.111-114.

³ 7 دیواک اوف ارگیل (مسأله افغان) مترجم فرهنگ، کابل، ص 15-16

hujumlari natijasida Britaniyaning hujumlari ancha kamayayotgani va obrusi tusha boshlayotganiga shunday qarab tura olmaymiz ¹. Haqiqatdan “Salobatli yurishlar”ini boshlashi bilan har ikkalasi janub va shimol tomondan Afg’oniston tomoniga yurish qilish holatida edilar. Ayni shu vaqtda ruslar Amudaryo atroflarida va inglizlar Sulaymon darasida yurishga tayorgarlik qilayotgan edilar. Yana shuni alohida ta’kidlab o’tish kerakki bu ikkalasi ham ular o’rtasidagi konflikt chegarani yo’qotishni Afg’onistonni “bufer” zonaga aylantirishga qaror qabul qildilar va bu o’yinga “kabob gushtlari sovishi” bilan xoru zor asir millatlar yuzaga kelishini har ikkalasi bilar edilar. Shuningdek bu ikki atama to’g’risida so’z yuritar ekanmiz bir savol yuzaga keladi endi bu mavzuga tegishli haqiqiy baxslar va mustamlakaga aylantirishning bu o’yin natijasida Afg’onistonda nima yuzaga kelganini biz ko’ra olamiz deydi Divok Argil².

Bu o’yinga tegishli fikrlarning va sahnalarning keng ko’lamligiga qaramay uning markazida va asosida Afg’oniston turar edi. Afg’oniston Hindiston va Markaziy Osiyo tarixi kechuvida bundan keyin dunyoning barcha g’olib davlatlari o’tadigan bo’ldi. Bu o’yin yuzaga kelgan vaqtda Hindiston va Afg’oniston bir xatarli nuqtaga aylanib qolgan edi, inglizlar esa bu qiyinchiliklardan Afg’onistonga rus askarlari jo’nashni to’xtatgan vaqtgacha himoya qilishlarini aytgan edi va va’da bergandi. So’ng esa “Salobatli yurishlar”ga nisbatan inglizlar va ruslar Afg’onistonning janubiy va shimolidagi hududlarga otlanganliklari oydinlashib qoldi.

Inglizlar 1808-yilda Afg’onistonning sobiq hududi hisoblangan Sind tarafga o’z diqqat e’tiborlarini qaratdilar. Hindiston general gubernatori Lord Laynd o’z vazifasiga ta’yinlangan bir vaqtda 1839 yilda Sind amirlari bilan (Mir Nurmuhammad, Mir Nosirvva qolgan amirlar) 31 bandli bir shartnomani imzoladilar, inglizlar Sindga besh ming askarini jo’natishi esa bu shartnomaning asosiy bandi edi va ular tomonidan ishlatiladigan harajatlar amirlar xazinasidan to’lanadigan bo’ldi. Inglizlar bunga ham qanoat qilmay 1843-yilda boshqa bir

¹ دیواک اوف ارگیل (مسأله افغان) مترجم فرهنگ، کابل، ص، 17- 18

² Ushbu asar, 17-18.

shartnomani amirlar ixtiyoriga topshirdilar bu bir yil o'tgandan so'nggina ular majburan ravishda qabul qiladigan bo'ldilar. Tahlillar Sind millatiga bundan so'ng shartnomaga asoslanadigan bo'lsak g'amgin bir tajribani izohlab berdilar ya'ni bora-bora ularning asoratiga tushib qolishlarini dalillar bilan tushintirishlar berdilar¹.

Afg'onistonda inglizlarning askarlari tor-mor qilingan vaqtda Moknotanning elchisi va Aleksandir vakili qatl qilindi va shoh Shujo ham aynan bu vaqtda olamdan ko'z yumdi. Inglizlar bu voqealardan so'ng sinash maqsadida 1843-yilda Sindga hujum qildilar hamda bu hujum muvaffaqiyatli bo'ldi va inglizlar amirlarni zindonga tashladilar va ko'plari esa o'z yurtlarini tashlab ketdilar, ya'na bir guruhi esa mamlakatdan badarg'a qilinib, bu yurtni o'z mustamlakasiga aylantirdilar. Bu voqeadan so'ng sikhlarini tor-mor etgungacha va bu yurt a'zolari o'z qullariga aylantirgungacha Panjobga yurish qilishni xohladilar, Ranjid Singning avlodini qatl qildilar va 1849-yilda faqatgina Panjobni egallanmadi balki (Sind daryosi havzasida yuzaga kelgan) uning barcha qismida istiqomat qiladigan pushtun mintaqasini va sikhlar yashaydigan va ular egallab turgan hududlarning barchasini o'z qo'l ostiga olishga erishdilar.

Shu tartibda oz vaqt mobaynida 70 million Panjob aholisi, 2 million Sind aholisi, Pushtun qabilalarining barcha qismini o'zlariga tobe qila oldilar. Inglizlar janub tarafdin yelday uchib borar edi. Buning natijasida Sind, Panjob va Sind havzasini o'z qo'liga oldilar va bu Sulaymon tog'lari yaqinlarida to'xtagan "Salobatli yurishlar"i edi.

Afg'onistonga tegishli bo'lgan Bulujistondagi vaziyat bir qancha farqli edi. Bu yerdagi siyosiy ko'rinish, 1853-yilda Amir Nosirxonga taqdim qilingan shartnomani imzoladilar va manashu shartnomaning to'rtinchi bandida shunday ma'lumotlar keltirilgan edi: "Agar inglizlar xonga tegishli mintaqadagi Britaniya askarlari va sarbozlarini o'z joylariga qaytarib yuborsalar va bu yurtdan chiqib ketsalar, amir bularning xavfsizligini o'z zimmasiga oladi. Oltinchi moddasida esa inglizlar tomonidan amirga 15 ming rupiya to'lanilishi to'g'risidagi va'dasi

¹ محمد ابراهيم عطايي "تاريخ معاصر افغانستان" كابل - افغانستان، 2010، ص، 121.

keltirilgan edi. Mashhur inglizlardan biri Mijar Jalkab va amir Nosirxon bu shartnomani imzolagan edilar¹.

“Salobatli yurishlar”ining tarkibiga kirgan Afg'onistonning janubidan shimol tarafga yurish holatida bo'lgan inglizlar haqida Mustuteg deb nom olgan kelishuvda eslatib o'tilgan edi.

Afg'oniston shimolidagi ruslar “Salobatli yurishlar”idan foydalanib janub tarafga harbiy harakat olib borishga tayyor holda edilar. Aleksandir tomonidan Kavkazga hujumi avval (1801-1825 yillarda) sikhlarda boshlanib, 1809-yilda qo'zg'olonchilarning rahbari bo'lgan shayx Shomilning qo'lga tushishi bilan o'z nihoyasiga yetgan edi. 1839-1840-yillarda Afg'onistonda birinchi ingliz-afg'on urushi boshlangan vaqtda ruslar Xivaga hujum qildilar kuchli talofatar ko'rgan xiva xoni taslim bo'ldi va ular Markaziy Osiyodan uning qo'llari butunlay olib tashlab o'z shiddatli hujumlarini boshlashliklari to'g'risida tashvishga tushdilar. 1865-yilda Toshkentni va 1866-yilda Xo'jandni olib Qo'qon xoniga katta talofat berdilar. 1868-yilda Buxoroga hujum qilib shu yilda Turkiston viloyatini tashkil qildilar bir yil o'tib Samarqandni olib mutloq Buxoroda o'z hokimiyatini o'rnatdilar. Ruslar bundan ham aniqroq ma'lumot beradigan bo'lsak "Salobatli yurishlar"i (to'xtashi) bilan kengligi bir ming km va uzunligi ikki ming km bo'lgan sahrolar, daryolar va Markaziy Osiyoning muhim shaharlarini o'z qo'liga oldi va Amudaryo atroflarida to'xtagandilar va keyingi yurishlari Afg'oniston tomonga bo'lishi haqida mulohazalar olib bordilar². Inglizlarning maxsus Pirvon harbiylari ruslarning harbiy harakatlaridan himoyalaniish maqsadida mumkin darajada Afg'onistonda to'siqlar tashkil qilish fikrida edilar.

Rossiyaning siyosiy rahbarlari inglizlar bu masalada bir jiddiy to'qnashuvga uchraganliklarini bilar edilar. Shu sababli ruslar Markaziy Osiyodagi yaxshiy qavmlarning kutarilishi jilovini oldi va sivilizatsiya almashuv ishi tugaganligini

¹ Barthorp, Michael (2002) [1982]. *Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947*. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8. P.17-18.

² Barthorp, Michael (2002) [1982]. *Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947*. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8. P. 45-65.

Sant-Peterburgdan Londonga mislsiz maktublar yuborgandi¹. 1858-yildan ruslar “Salobatli yurishlari”ni tezlashtirgan edilar, 10-yil vaqtda “Salobatli yurishlar”i natijasida o’z xohlagan yerlarga va natijaga ega bo’ldilar hamda Markaziy Osiyodagi nufuzini kengaytirdilar.

Endi ruslar shimol tarafdin inglizlar esa janub tarafdin Afg’onistonni jiddiy o’rganish yuzasidan qaror topgan edilar. Do’st Muhammadning vafotidan so’ng Sheralixon o’z akalari bilan taxt talashayotgandi va hech kimni mintaqada haqiqiy egasi ekanini rasmiy tan olmay ruslarni va inglizlarni ham e’tiborsiz qoldirgan edi. Boshqa bir tarafdin manashu ikki buyuk davlat (ingliz va ruslar) har paytda jangning muqaddimasining peshqadami bo’la olgan edilar va hamda shu darajada qo’rquvda edilar. Sheralixonning hukmronlik davri kuchli bir xavf-xatarda edi. Shu yillarda inglizlar janub tomondan Suloymon daralarida to’xtagan va shimol tarafdin ruslar Amudaryo qirg’oqlarida to’siqlar qilgan edilar. Boshdanoq bu asrda boshlangan qudratli tufon edi, o’n yildan so’ng bu o’z avjiga yetdi va keyin har ikki derjava to’xtatishi to’g’risida eslab o’tidilar.

Afg’onistonning janub va shimolida biri Amudaryo bo’ylarida va boshqasi Sulaymon etaklarida mustahkamlangan vaqt ikki buyuk davlatlarning “Salobatli yurishlar”i edi. Ikki buyuk davlatlarning to’qnashishi bilan mintaqada katta va buzg’unchi bir urush yuzaga kelishiga olib keltiradigan xavf-xatarni vujudga keltirardi. Ruslar inglizlar Hindukush etaklarida okoplarga tushib olib u yerdan Markaziy Osiyodagi ruslarning kelishini qurollar bilan kutib olishi fikrida edilar. Inglizlar bunga qarshi ruslar Amudaryodan yurish qiladi va Hindukush etaklarini oyoq osti qilib Hindiston tarafga yurishi mumkin degan fikrda edilar, lekin ularning ruslar Hindistonga Hirot va Qandahordan hujum qilish fikrlari ishonchliroq edi.

Inglizlar 1857-yilda amir Do’st Muhammad bilan jiddiy tarzda ikkinchi Jamarud shartnomasini imzolagan vaqtda va shunga asosan Eron askarlarini Hirotidan chiqargandilar, shunga binoan ruslar qiyinchilikni qizg’inlik bilan

¹ Сальникова А. В. Англо-русское соперничество в Центральной Азии в последней трети XIX – начале XX в.: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Владимир, 2009. 41-44.

aniqlashtirib bu ishga bel bog'lagan edilar. Ayni vaqtda amirning kuyovi bo'lmish Sulton Ahmadxon Sarkor Hirot hokimi etib tayinlandi. Ruslar 1858-yilda Xonikuf boshchiligida bir delegatsiyani Hirotga jo'natdilar. Bu delegatsiyaning asosiy vazifasi vaziyatni aniqlashdan iborat edi. Xonikuf boshchiligidagi ruslar xorijiy ishlar vazirligiga barcha ma'lumotlarni jo'natishi buning ikkinchi tomoni edi. 1859-yilda amir Do'st Muhammadxon Qunduzni oldi va Badaxshonni ham o'z ta'sir doirasiga kiritgan edi. Ruslar g'alayonlarda qattiq qo'llik bilan to'rgandilar, zero ular amir Do'st Muhammadxonni har qadamida ularning manfaatlarini nazarga olgan inglizlarga vafodor shaxs va vakil sifatida hisoblardilar.

Ruslar ular Markaziy Osiyoda Hindukush etaklaridan zarbaga duch kelishlari mumkin deb o'yladi, shuning uchun bunga qarshi harbiy rejalar tuzib chiqardilar. Muqobil ravishda inglizlar ham Amudaryo tarafdin ruslarni oldinga yurishini oldini olish rejasini tuzdilar. Londondagi kengaytirish tarafdorlari jiddiy ravishda Britaniya Hindistoni Markaziy Osiyo uchun Hindukushni bir to'siq sifatida bildi. Bu siyosatning izdoshlaridan biri Rovelsin bo'lib Maknotan shoh Shujoni Kobulda almashtirdi. Barcha janubiy-g'arbiy boshqaruvni Rovelsinga topshirdi va uning markazi Qandahor edi. Buning asl asosi inglizlar o'zining siyosatini zo'rlik va kuchlar bilan amalga oshirish kerak. Bu shaxs Angliya bosh vaziri Dizroelining maslahatchisi bo'lgan mashhur vakili edi. "Hundukushning barcha etaklari inglizlar tomonidan ishg'ol qilinishi Hindiston himoyasida undan foydalanishi Markaziy Osiyoga ko'prik sifatida foydalanishni nazarda tutgan edilar".¹

Ushbu nazariyalar Hindiston daralaridagi ruslar va inglizlar to'qnashuv xavfini judayam yaqinlashtirib qo'ydi. Londondagi kengaytirish siyosatining bongi urilgan vaqtda, bir guruh siyosatchilar Hindistonning xavfsizligini ko'zlab ilmiy chegara nazariyasini qo'llash fikrida edilar. Bu siyosat inglizlar Sulaymon tog'larining etaklari (Haybar, Payvor, Porachor, Tovchi ,Karm Gumil va Kujek)ni agar Hindistonga tajavvuz yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hamma joylardan hujumni qaytarish uchun to'siqlar tashkil qilish fikrida edilar.

10 عزيز نعيم. افغانستان مركز ثقل بازی بزرگ، مقاله افغانستان آزاد، شماره سوم پشاور،¹

1841-yilda inglizlar Afg'onistonda hech narsaga erisha olmay aylanib yurgan bir vaqtda Blujistonda Qalot xoni amir Nosirxon bilan kelishuvni imzoladilar. Ular uning vositasida Kvettani ham o'ziga buysindirib, 1876-yilda bir ulkan harbiy markaz va Katta Kujak o'tish yo'liga tusiqlar qo'ygandilar. Bu rejalarning hammasi egallash maqsadlari edi. Rossiya tashqi ishlar vaziri Gurchakov Brins mislsiz ravishda London hukumatiga nomalar jo'natdi va inglizlar Afg'oniston shimoli ruslarning muzokaralarini qabul qilishini va Hindukush to'g'risida ularning fikrlari o'rganishlarini qattiq turib oldi.

Ruslar Markaziy Osiyoning uzoq va yaqin barcha shaharlari va sahrolarini tasarrufiga oldi. Lekin ularning Hindiston tarafga Afg'onton yo'lidan bu zaminga kirish uchun u mamlakatga ko'z tikardilar.

Inglizlar Afg'oniston amiri va uning odamlari inglizlardan qattiq nafratlanishini, agar fursat tug'ilsa, inglizlarga zarba berishdan darig' tutmasdi. Inglizlar Hirot va Hindukush to'g'risida juda ixtiyotkor edilar va u yerda bir kichik qushning uchishini ham jiddiy e'tibor berardilar Forward Polisy tarafdorlari yengni shmarib aql bovar qilmaydigan har bir ishni inglizlarning Hindistondagi ishlariga beparvo edilar. Milodiy 1879-yil Lord Leytin Afg'onistonga hujum qildi uning maqsadi Hindukush xavf-xatarlarini boshidan uzoqlashtirish va Suloymon daralarini ixtiyoriga olish edi.

Bu baxslarning natijasida 19-asr boshlaridan 70-yillari boshlaridagi inglizlar va ruslar o'rtasidagi to'qnashuv yuzaga kelishidan xavotirlanganliklari to'g'risidagi bu fikr mantiqiy asos topadi. Bu to'qnashuvning ixtimoliy hududlari Hindukush, Suloymon va Hirot sahrolari edi. Afg'onistonning "bufer" mamlakat sifatida loyihalashtirish bilan bu xavf olib tashlandi¹.

Inglizlar "bufer" rejasini ajratish siyosati bilan birlashtirdi.

Lord Mollington rejasi ya'ni Afg'oniston to'g'risidagi siyosati 19-asr boshidan foydalanilgan taxminan 60 yil inglizlar qismiga tegishlisini boshqalar bilan o'rnatmaguncha Afg'oniston masalasini juda ixtiyotkorlik bilan taqib

¹ Loyn, David (2009). Butcher & Bolt: Two Hundred Years of Foreign Engagement in Afghanistan. London: Windmill Books. ISBN 978-0-09-952263-8. P.118-119.

qildilar. Barcha Sadozoy shahzodalari qatl qilinishi va ko'r qilinishlari o'z-o'zidan ajratish siyosatini yuzaga keltirgan edi. Jumladan Barakzay hukmdori amir Do'st Muhammadxon ruslarga qilgan past nazari aybli xato bo'ldi va noo'rin hatti-harakati tufayli uch yil umrini Ludiona zindonida o'tkazdi.

Ajratish siyosati amir Do'st Muhammadxonning o'limigacha (1863-yil) haqiqiy ravishda amaliy ta'siri bo'ldi va Jamurud shartnomasida (1857-yil) "molxonada ishlatiladigan qoziq bilan qoqib qo'yildi"¹. Amir Do'st Muhammadxonning o'limidan so'ng ruslar "Salobatli yurishlar"i bilan Markaziy Osiyoga kirdilar, bu ham inglizlarga balki ruslar Buxorodagi nufuzidan so'ng Hindukushgacha yurishlari vohimasida edilar.

Londondagi Forward Polisy Afg'onistonni egallab va ruslarning yurish jilovini olishini xohlardilar. Bu siyosatning yirik tarafdori baqirardi va bosh vazir va Gladiston bilan raqobatda bo'lgan Dizraeli bu qarashlarga chuqur quloq tutardi. Ammo Osiyo va Yevropadagi vaziyatdan ogoh va hushyor inglizlar ruslar bilan kelishish fikrida edilar. Ruslar Markaziy Osiyodagi mulklarini kengaytirardilar. Ammo inglizlarning fitnasida sabab bo'lishni xohlamasdilar, shu sababli maktublardan doimiy Afg'onistonni inglizlar ta'sirida deb hisoblardilar².

Shimoliy Hindistondagi o'z manfaatlarini tinchliksevar siyosatda tasvvur qilgan ko'zga ko'ringan ko'pchilik ingliz siyosatchilari inglizlar va ruslar o'rtasidagi ishlariga na Rossiya va na Angliya aralashmaydigan va uning shimoliy-janubidagi kuchlar xalq va mintaqa ishonchiga xizmat qilib ularning ajratish xavfi bartaraf qilingan. Bu "bufer" hududni tashkil etish uchun kerakli loyihani ishlab chiqdilar. Shuningdek, bu loyiha ikki taraf qarashlariga mos edi, ammo bu ishni amalga oshirish ko'p muammoga ega edi. Muammo shu ediki, har ikki taraf bir-biriga ishonmasdilar va bu ishonchsizlikni nazorat qilish uchun bu loyiha har ikki tarafning topshirilgan masuliyatlaridan sodiqona tarzda bo'yin tovlamasligi kabi har qanday tuyg'ulardan ustun bo'lishi kerak edi. Dastlab inglizlar "bufer" siyosatiga uni ajratish siyosati bilan birlashtirish uchun qiziqgandilar. Ingliz

¹ محمد ابراهيم عطايى "تاريخ معاصر افغانستان" كابل - افغانستان، 2010، ص، 128.

² Ромодин В. А. Афганистан во второй половине XIX – начале XX вв.: Официальная история и историография. М., 1990. Р. 188-192.

siyosatchilari ruslar bilan suhbat va majlisda “bufer” borasidagi maktublarda, “bufer” mavzusining ruslarning qulog’iga yetkazish uchun eslatib o’tardilar, ruslar dastlab “bufer” zonasi qayerda va qanday tayinlanishini bilmasdilar, ammo inglizlar aniqlik kiritmasdilar, bu nazariya Afg’onistonda tatbiq etilishini tushunardilar, sekin-sekin ruslarni ham o’z hamfikrlarga aylanib qanoat hosil qildilar.

“Bufer” rejasi qanday vujudga keldi?

1868-yilda amir Sheralixon o’z raqiblarini maydondan chiqarib, o’zining ikkinchi podsholik davrini boshladi. 1868-yil 2-noyabrda Hindiston vitse-qiroli lord Lorins bir maktubida uning amirligini rasmiy tan oldi¹. Inglizlar amir bilan oldindan do’stlik munosabatida bo’lib, uning podsholigi boshlarida unga bir mln ikki yuz ming rupiya va o’n ikki ming miltiq berganligiga qaramasdan shu bilan ham unga ishonmasdilar va u inglizlarni yoqtirmasligini yaxshi bilardilar. Shu sababli u otasining xatosini takrorlab, ruslar tarafga yuz o’girib ketmasidan avval uning qo’lini bog’lab tashlash uchun “bufer” rejasini ishga tushirdilar.

1869-yilning boshlarida Gladiston hukumatining tashqi ishlar vaziri lord Klorendun Londonda Rossiya elchisi Borun Brunov bilan uchrashuv vaqtida Markaziy Osiyo masalasi yuzasidan bahslar jarayonida Rossiya va Hindiston chegaralari o’rtasida ha ikki mamlakat nufuz doirasidan chiqqan va har ikki taraf hurmat qiladigan bir neytral hudud tashkil etish kerakligini bildirdi. Ingliz tashqi ishlar vazir deydi: “ Angliya Rossiyaning Hind chegaralaridagi pesshqadamligidan butunlay ko’ngillari to’q, hech qanday xavf sezmaydilar, ammo shunga qaramay Rossiya va Angliya o’rtasida mustaqilligi, xavfsizligi va betarfligi kafolatlangan neytral zonaning bo’lishi yaxshidir”².

Borun Brunov Klorendunning fikriga qo’shilib, xabar tafsilotini Sant-Peterburgga Rossiya tashqi ishlar vazirligiga jo’natdi. Rossiya tarafdin Berns Gurchakuvning maktubi Angliya tashqi ishlar vazirligiga Hindiston lord Moyi

¹ فضل ربی پڑواک بین المللی روابطو تاریخ ، ص 22-24 ، کابل 2010

² Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990. С. 78-79.

Voysaroy Amboloda Afg'on podshohi amir Sheralixonni kutib olgan o'sha kunda yetib bordi.

Gurchakuv Angliya tashqi ishlar vaziri Klorendunni ta'riflab ko'rsatgan mintaqani Afg'oniston deb tanishtirgan. Shuningdek Borun Brunovga "Klorendunga ruslar Afg'onistonning avval hukmronlik qilgan joylarini o'z hududlaridan tashqari deb bilishlarini ayting"-dedi¹.

Bu maktub 1869-yil 7-martida Gurchakuv tomonidan imzolanib, 27-martida Klorendunga yetib bordi va shu tariqa Klorendunning o'qi nishonga tegdi va raqibi yordamida o'zi xohlagan, ammo tilga olmagan hududni qo'lga kiritdi. Ammo bu yerda boshqa bir muammo yuzaga keldi va u shu ediki, agar Afg'oniston va Buxoro o'rtasidagi chegara aniqlanmasa, Buxoro ruslar ta'siri ostida bo'lgani uchun Rossiya Amudaryoning bu tarafidagi o'z ta'sir doirasini Hindukushgacha kengaytirishi mumkin edi.

Endilikda dastlab Afg'onistonning shimoliy hududi ko'rsatilib, so'ngra "bufer" xolis hudud belgilanishi kerak edi. Inglizlar bu masalada ruslar bilan juda extiyotkorlik bilan uchrashardilar, Hindiston lord Moyi Vaysaroy Duglas Forsitni 1869-yil oktabrda bir necha bor Rossiya poytaxti Sant-Peterburgga jo'natdi, u bir betaraf hududni yaratish uchun unda chegara masalasi ham hal etilib, izohlangan uch usulni shunday tushuntirgan maktub va Voysaroynining qarashlarini u yerdagi hukumatga taqdim qildi.

1. Hozirgi vaqtda amir Sheralixon qo'lida bo'lgan hududlar Afg'oniston hududlari deb hisoblanadi.
2. Yuqoridagi amir ushbu mintaqalarda o'z hukmronligini kengaytirishdan bosh tortishi va inglizlar butun kuch-quvvati bilan uning hujumini oldini olishi kerak.
3. Rossiya imperiyasi hukumati butun ta'siri bilan Buxoro amirning Afg'onistonga hujum qilishining oldini olishi kerak².

¹ Barthorp, Michael (2002) [1982]. *Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947*. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8. P.45-58

² Barthorp, Michael (2002) [1982]. *Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947*. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8. P.65-68.

Muzokaralar uch yil davom etib, ular mobaynida bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keldi ularning eng asosiysi shunday ediki ruslar Badaxshon va Vohan hududlarini amir Sheralixon hududi deb bilmay uni Buxoro amirligiga tegishli deb hisobladi. Brins Gurchakuv Amudaryoni chegara sifatida tan oldi. Lekin Kobul hukumatidan Badaxshon va Vohan hududlarini Buxoro amirligiga tegishli hudud ekanligini tan olishlarini talab qildi. Keyinchalik bu masala to'liqligicha oydinlashtirilmadi. Ammo Amudaryoning yuqori oqimlari chegara sifatida tan olindi va Badaxshon masalasi to'liqligicha hal etilmadi. Milodiy 1873-yilda ingliz va ruslar uchun yana bir yangi muammo paydo bo'ldi. Endilikda ular bu mintaqada o'zaro to'qnashuvga duch kelmasliklari uchun "bufer" zona masalasini tezroq hal qilish kerak edi. Inglizlar muntazam ravishda ruslarga agar chegaralar aniq belgilansa, ko'p qiyinchiliklar yuzaga kelishi va "bufer" masalasini o'qtirib keldilar. Ruslar ham bu masalani atroflicha o'rganib chiqdilar. Chegaralarni aniq belgilash haqida bir to'xtamga kelmadilar chunki inglizlarning manfaatiga to'g'ri kelgandi.

Oxir oqibatda inglizlar va ruslar chegara masalasini aniq belgilamadi. Nomigagina hal qildilar, lekin zimdan bir-biriga qarshi siyosat olib bordilar. "bufer" masalasida ruslar Afg'oniston ichki ishlariga aralashmasliklari kerak edi, lekin ruslar buni to'xtatmadilar ya'ni "bufer" masalasi to'liq hal etilmadi. 1905-yilgacha Afg'oniston chegarasi aniq belgilanmaguncha davom etdi. Oxir oqibat ruslar bu siyosatni qo'lidan boy berdi. Rossiya tashqi ishlar vaziri Gurchakuv boshida Badaxshon va Vohanni Afg'onistonga berishni xohlamadi. Lekin 1879-yilning oxirlarigacha davom etgan ingliz-rus raqobatchiligida ruslar mag'lubiyatga uchrab, Afg'oniston inglizlarning ta'sir doirasida ekanligini tan oldi.

Oxir oqibat "Katta O'yin" va "Salobatli yurishlar"ida inglizlarning g'alabasi bilan tugadi. Ammo bu siyosatda ruslar yengilganiga qaramay bu raqobatni davom ettirdilar.

1.2. Afg'onistonda ingliz siyosatining o'zgarishiga olib kelgan omillar va ikkinchi ingliz-afg'on urushi

Markaziy Osiyo hududidagi Xivani ruslar ancha qadim yillardan beri ko'z ostiga olib kelganlar. XIX asrning 50-yillari oxirlarida ruslar kuchli harbiy qo'shin bilan Xivaga yurish boshlaydilar. Xiva xoni ham katta qo'shin bilan dastlab ruslarni chekinishga majbur etdi. Shundan so'ng ruslarning kuchli hujumlari boshlanib, 1873-yilda Xivani o'z ta'sir doirasiga kiritishga erishdilar. Inglizlar bunga javoban ruslarni ta'qib qilib, amir Sheralizxonni o'zlariga qaratib olishni reja qiladi. Inglizlar Afg'oniston amiri ruslarning har bir harakati haqida ularga xabar berib turishni xohlardilar. Ammo amir bu ishni amalga oshirmadi, hatto 1869-yildagi Ambola konferensiyasida ham amir Lord mayor Vaysroga ruslar haqida og'iz ochmadi. Amir inglizlar ruslarning yurishlaridan nima uchun tashvishga tushganliklarini bilar edi va inglizlar Afg'onistondan yordam so'rashi kerak deb bildi.

London va Sant-Peterburg o'rtasida ko'pdan ko'p yozishmalar amalga oshirildi, lekin ruslar bitta javobda qoldilar va o'zlarini oqladilar. Ularning Xivaga yurishlari faqat avom bir xalqni rivojlantirish maqsadida ekanligini inglizlarga bildirdilar. Inglizlarni tashvishga solayotgan Afg'oniston borasida ruslar quyidagicha fikr bildirdilar: “ Biz Afg'onistonni ingliz ta'sir doirasida deb tan olamiz va uning ichki ishlariga aralashmaymiz”¹.

Inglizlar baribir tinchlanmadilar va kelajakda ruslar o'zlari uchun mintaqada hatto raqibga aylanishidek qo'rqdilar. Shu asnoda 1876-yilda Xivaning ruslar ta'siriga kiritilishi inglizlarning kuchli xavotir ostida qoldirdi. London vakillari bunday holatni oldini olish uchun chuqur o'yga toldilar va Afg'oniston mustaqil ravishda boshqarilib, yangi siyosat yuritish qaroriga keldilar.

Bu orada liberallar hukumati va ularning bosh vaziri Gladiston o'z o'rnini yangi bosh vazir Dizraeliga topshirdi. Birinchi ingliz-afg'on urushining yirik nomayondasi Rovleus Dezraeliga Afg'oniston masalasini hal qilinishi inglizlarning

¹ Лалетин Ю.П. Этнополитические процессы в истории Афганистана XVII –XX веков: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. М., 2000. Р. 36-39.

Markaziy Osiyoga ham ta'sirini kuchaytirishi borasidagi fikrlar aniqligini ta'kidladi.

Shundan so'ng London bor kuchi bilan Afg'oniston masalasi haqida o'ylay boshladi. 1875-yilda Qallot xoni va inglizlar vakili o'rtasidagi shartnoma imzolandi va unga ko'ra Kvetta inglizlarning bu mintaqadagi harbiy markazi deb tan olindi. Shunisi qiziqki, 1841-yilda inglizlar Kvettani Afg'onistonga tegishli ekanligini isbotlovchi bitim imzolagan edilar. Biroz vaqt o'tgandan so'ng Buyuk Britaniya o'zining Hindistondagi gubernator Vaysroga yangi bir topshiriq berdi va unga ko'ra Voysro amir Sheralixonga Britaniyaning missiyasini qabul qilishini aytishi kerak edi. Bu vaqtdagi Britaniyaning Hindistondagi vakili iste'fo berib, vazifasini oldinroq tark etgan edi. Bundan so'ng Dezraili hukumati Pavleusning taklifiga binoan Lord Leytinni Hindistondagi gubernator etib tayinladi. Aynan bu shaxs ikkinchi ingliz-afg'on urushiga sabab bo'lib uni keltirib chiqargan edi¹.

Nort Bruk o'rniga Hindiston gubernatori etib tayinlangan Lord Leytin qattiq qo'l siyosat olib boradigan shaxslardan biri edi.

Hindistonning oldingi gubernatorlaridan Nort Bruk va boshqalari siyosat bobida kuchli shaxslar bo'lib, oqilona ish yuritganlar. Ammo Leytin aksincha agressiv siyosat tarafdori bo'lib, hurmat qilishga ham arzimaydigan bir shaxs edi².

Ambala konferinsiyasida amir Sheralixon va Nort Bruk bilan ijtimoiy va siyosiy muommolar haqida fikr yuritib, oqilona diplomatik aloqalar olib borgan edilar, lekin Leytinning buyruqlari va harakatlari ularning ishlarini takrorlamadi. Uning harakatlari biroz tahdidli va faqat harbiy yurishlarni nazarda tutar edi³.

Leytin Hindistonga kelgach, amir Sheralixonga maktub yo'llab, Kobulga Lo'yin Pili boshchiligida rasmiy missiya borishini va muzokaralar o'tkazilishi kerakligini ma'lum qiladi. Ammo Sheralixon samimiyat bilan bunday vaziyatda missiyaning tashrifi o'rinli emasligini tushuntiradi. Bu javobni eshitgach, Leytin Kobuldagi inglizlarning musulmon vakili Ato Muhammaddan amir haqida

¹ Князев А. А. Афганский кризис и безопасность Центральной Азии (XIX - начало XXI вв.). Душанбе, 2004. С.49-56.

² محمد ابراهيم عطايى "تاريخ معاصر افغانستان" كابل - افغانستان، 2010، ص، 158.

³ Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990. С. 89-90.

ma'lumot berishni so'raydi Ato Muhammad unga quyidagicha ma'lumot beradi: "To'g'risini aytsam amir inglizlarga ishonmaydi va har doim inglizlar meni o'rtadan olib tashlashga harakat qiladi deb aytadi, shuningdek inglizlarning Afg'oniston hududi hisoblanmish Kvettani harbiy markazga aylantirishidan norozi bo'lganligini ham ta'kidlaydi va Peshovar borasida salbiy fikrlar bildiradi"¹.

Siyosat borasida qattiylik bilan ta'nilgan Leytin Londonga murojaat qilib, ruslarning siyosatiga qarshi javob qaytarish zarurligini ma'lum qiladi. U Hindikush daralari ingliz askarlari bilan to'ldirilib, u yerlar egallanishi zarur ekanligi, so'ngra Qandahor, Hirot va Balx Britaniya Hindistoni tarkibiga kiritilishi lozimligini o'qtiradi.

Kobul va G'azni ularning harbiy bazalari bo'lishi, Shinvor va Mehmand Nangorhordan olinishi, Peskin va Sapaviy Qandahordan olinib birgalikda Bulujistonga o'tkazilishi kerakligini taklif qiladi. Shuningdek Haybar, Qurama va Bolon (harbiy strategik mintaqa) Hindistonga o'tkazilishi va shu tarzda Afg'onistonni parchalab tashlashni taklif qiladi. Bu g'oyalar faqat Leytinning shaxsiy fikri bo'lgan². Rowlensning g'oyasi vositasida vujudga kelgan edi. Rowlen Britaniyaning Afg'oniston va Markaziy Osiyo bo'yicha mazsus mutaxasisi edi. Bu fikrlarga Gladistonning birinchi o'rinbosari bo'lgan Divkov Argil qarshilik qildi. Ammo Leytin va bir qator shaxslarning roziligi bilan siyosat yuritilib ikkinchi ingliz-afg'on urushiga zamin hozirlandi³.

Peshovar muzokaralari

Leytinning Hindistonga kelishi Afg'oniston va Hindiston osmonida qora bulutlar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Lord Leytin Hindistonning Kobuldagi vakili Ato Muhammadni Samolaga kelishini so'radi. Tashrif buyurgach Afg'onistondagi vaziyat haqida hisobot berishini talab qildi. Agar ingliz xizmatchilarini o'z hududida qabul qilmasa, Afg'oniston bug'doy donalaridek parchalanib ketishini amirga tushuntirib qo'yishini buyuradi. Ato Muhammad

¹ Каландарова М. С. Геополитика Англии в Афганистане в первой половине XIX в.: Миссия в Кабуле. М., 1995. С. 126-125.

² Имомов Ш. История общественной мысли Афганистана во второй половине XIX – первой половине XX в. М.- Душанбе, 2001. С.158-159.

³ فضل ربی پژواک بین المللی روابطو تاریخ، کابل، ص25-28

Kobulga kelib, amir bilan uchrashadi va Leytinning gaplarini oqizmay tomizmay unga yetkazadi. Amir esa boshini qashilab unga istehzomuz dedi: “ Leytin xato qiladi, Afg'oniston har qanday siyosiy va harbiy kuchlarni bartaraf eta oldi”¹.

Gladistonning liberal hukumati vakili Divkov Argil quyidagicha fikr bildirgan: Markaziy Osiyo diplomatiyasi taqdiri Leytinga bo'g'liq bo'lib qoldi. Turli xil fikrlar va bahslardan so'ng bunday og'ir siyosiy vaziyatni yengillashtirish uchun Peshovar muzokarasi tashkil etildi. Unga amir Sayidnurmuhammad shohni boshliq etib tayinladi va Miroxur Axmadxon va Mirzo Muhammad Baqarni hay'at tarkibiga kiritdilar. Bu hay'at 1877-yilning yanvar oyida Peshovarga yetib keldi va u yerda inglizlar vakili Serrobrat Pili bilan muzokaralar boshladilar. Pili Lord Leytinni fikrlarini ma'qullab, Afg'onistonda ingliz missiyasi ish boshlashini qo'llab- quvvatladi. Lekin Sayidnurmuhammad shoh bu ishni jamarud bitimiga zid deb bildi. Jamarud bitimilari haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tamiz.

Birinchi jamarud bitimi.

Hindistondagi ingliz general gubernatori Lord Dolahzayning maslahatchilari unga amir orqali Britaniya Hindistonining yangi chegaralarni belgilashni maslahat berdilar, u amirga xabar berdi. Amir o'z o'g'li sardor G'ulom Haydarxonni o'zining vakili etib tayinladi va Panjob general gubernatori Lorensni ham vakil etib tayinlaydi. Har ikki vakil milodiy 1855-yilning 30-mart oyida uch moddadan iborat bir Jamurud nomli kelishuvni imzolaydilar u quyidagicha edi.

Birinchi modda: “Ost Indiya kompaniyasi amirga qarashli mustaqil hududlarni e'tirof etishga va hechqachon ularning ishlariga aralashmaslikka va'da berdi”.

Ikkinchi modda: “ shu sanadan so'ng Ost Indiya kompaniyasi va amir Do'st Muhammadxon va uning qarindoshlari va vorislari o'rtasida doimiy do'stlik va tinchlik mustahkam va barqaror bo'ladi.”

Uchinchi modda: “Kobul va unga tegishli hududlar amiri Do'st Muhammad o'z tarafidan va uning o'rniga keladigan kishilar tarafidan Ost Indiya

¹ Хмелевская З. А. Первый том “Сирадж ат-таварих” как источник по истории Афганистана первой половины XIX века: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. СПб., 1998. С. 13-15.

kompaniyasiga tegishli hududlari ishlariga aralashmaslikka va unga qo'l cho'zmaslikka va'da beradi. Bu sanadan keyin Ost Indiya kompaniyasi do'stlari bilan do'st do'shmanlari bilan do'shman bo'lajak¹.

Amir vakillari shaxsan imzolagan bu uchinchi moddasida barcha nozik masalalar keltirilgan edi. Inglizlar amirdan Ost Indiya kompaniyasiga tegishli hududlarga hech qachon aralashmaslikka va'dasini oldi. Angliyaga tegishli hududlar, oldin Sikhlarga tegishli bo'lgan va inglizlar ulardan tortib olgan Peshavor barcha hududlari kiradi. Inglizlar bu tarafdin ishonch qabul qilgan vaqtda boshqa bir tashqi janjal vujudga keldi. Ruslar eronliklar vositasida Hirot ichki ishlariga aralashishni boshladi va Hindistonda inglizlar foydasiga qarashli bir qiyinchiliklar yuzaga keldi. Hirot Eronning kuchli bosimi ostida qoldi. Hatto Eron shohi Nosiriddin shoh janga shaylana boshladi. Bu xatarlarni oldini olish uchun xonga Hindistonga borishini xabar berdi, lekin amir uzoq joyga borishdan uzur so'radi va Peshovar yaqinida shu jamarudda muzokara va kelishuv amalga oshirishni bildirdi.

Britaniya Hindistoni general gubernatori Lord Dolhazay bu safar ham Serjun Lorensni jo'natdi va amir bilan muzokaradan so'ng milodiy 1857-yilning 26- yanvarida ular ikkinchi jamarud deb ataladigan shartnomani imzoladilar. Bu shartnoma amir vakili Sardor Muhammad A'zamxon va Lord Dolhazay vakili Serjun Lorens tomonidan imzolandi. Bu shartmonaning oxirida amir Do'st Muhammad va Idvord Harbert ham imzo qo'ygan o'n uch moddadan iborat bo'lgan².

Birinchi moddasida Eron amir Do'st Muhammadga tegishli bo'lgan hududlarga hujum qilgan. Shu sababli jang holatida, shunga binoan Ost Indiya kompaniyasi mamlakatni himoya qilish uchun amir Do'st Muhammadga yordam beradi va Eron hujumini Kobul, Balx, Qandahor va mamlakatning boshqa hududlarida qaytaradi. Bu vaziyat tugaguncha inglizlar amirga bir lak rupiya berishi ham keltirib o'tilgan edi. Berilgan pul mablag'lari yordamida harbiy

¹ محمد ابراهيم عطايى "تاريخ معاصر افغانستان" كابل - افغانستان، 2010، ص، 159.

² Loyn, David (2009). Butcher & Bolt: Two Hundred Years of Foreign Engagement in Afghanistan. London: Windmill Books. ISBN 978-0-09-952263-8. P.97-99.

masalalar hal etilishi ham inobatga olingan edi. To'rtinchi moddasida ingliz mansabdorlari Angliya davlati xohishiga binoan afg'onlarning o'sha hududlarga Eron bilan qizg'in kurash olib borish uchun boradilar. Ular ingliz yordamlarini sarflanishini ham nazorat qiladi va Britaniya Hindistoniga hisobat beradi va amir ularning xavfsizligini o'z zimmasiga oladi. Beshinchi moddda amirga Peshovarda bir vakil yoki nomzod tayinlashga ruxsat berilishi va oltinchi moddada esa xatarlar bartaraf etilgach yordamlar ham to'xtatilishi eslatib o'tilgan. Yettinchi moddada yordam to'xtatilishi bilan ingliz askarlari Kobuldan chiqadi va kelishilgan sur'atda Kobulda bir vakil tayinlanajakligi eslatib o'tilgan. O'n birinchi moddada bu shartnoma hech qachon 1857-yilgi Peshovar Jamarud shartnomasiga ta'sir etmasligi aytilgan. Amir jang hujjatlarini muntazam ravishda ingliz hukumatiga yetkazishni va'da beradi, oxirgi moddada esa oldinroq amirga to'rt ming miltiq berilganligi va endi yana bir bor amir boshqa to'rt ming miltiq berilishini o'ziga so'raganligi va inglizlar bu iltimosni qabul qiladi, bu miqdordagi miltiq tez sur'atlarda unga yetkazilishi aytib o'tilgan edi¹.

Bu shartnoma ikki masalani oydinlashtiradi: birinchisi amir Do'st Muhammadxon Kalkuttadan Afg'onistonga jo'natiladi. U yerda undan Hirot va Qandahor ishlarida aralashmaslik va'dasini olishgan edi. Bu shartnomada Hirot unga tegishli afg'onning hududiy qismi hisoblanadi va bu kelishuvga asosan amir Hirot masalalarini o'ziga tegishli deb biladi.

Bu shartnoma Eron va uning ortida turgan ruslarga ham bir jiddiy ogahlantirish bo'ldi. Angliya Afg'onistonning yonidadir. Shuning uchun ishg'ol qilish bilan Eronni Hirot dan uzoqlashtiradi va keyin shu yilda Angliya va Eron o'rtasida Paris shartnomasi imzolandi². Eron rahbarlari Afg'oniston masalasida aralashmasligi belgilanib olindi. Shu tartibda Eron va ruslarning Hirot va Afg'onistonga bo'lgan da'vosi vaqtinchalik tugatildi. Birinchi va ikkinchi Jamarud shartnomasi deb ataladigan bu ikki kelishuv Afg'oniston diplomatiyasi tarixida o'ziga xos xususiyatga ega.

¹ Loyn, David (2009). Butcher & Bolt: Two Hundred Years of Foreign Engagement in Afghanistan. London: Windmill Books. ISBN 978-0-09-952263-8. P.135-136.

² Elliott, James (1968). The Frontier 1839–1947. London: Cassell. OCLC 46160081. P.145-146.

Demak Pili bu bitimga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni taklif qildi. Sayidnur Muhammad shoh ingliz va afg'on kelishuvi bir taraflama ekanligini, ammo inglizlarning dushmani afg'onlarning dushmani ekanligi, lekin agarda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur bo'lsa, bu bitimni barcha bandlariga o'zgartirish kiritish zarurligini bildirdi.

Shu yilning yanvar oyidan mart oyining o'rtalarigacha Sayidnur Muhammad shoh va Pili o'rtasida Peshovar muzokaralari davom etdi. Ammo inglizlar o'zlari kutgan natijani ola olmadilar. Sayidnur Muhammad shoh quyidagi fikrlarni bildirdi: “ Afg'onistonda ingliz missiyasi ish boshlashi haqidagi taklif ingliz hukumatining katta xatosi bo'lmoqda. Bir ishonch bilan aytamanki, afg'onlar bu ishga hali tayyor emaslar va to'rt yil oldingi Maknotanning ishlari hammaga ma'lum”¹. Muzokaralar chog'ida 1877-yilning 29-martida Sayidnur Muhammad shoh sirli ravishda vafot etdi va uning jasi Kobulga olib borildi. Amir muzokaralarni davom ettirish uchun vazir Haybatullaxonni Peshovarga jo'natdi. Ammo Pili vazirga Leytinning buyrug'iga binoan Peshovar muzokarasi tamom bo'lganligini ta'kidladi².

Usmonlilar imperiyasi sulton Abdulhamid bu vaqtda ruslarning yurishlaridan cho'chib, tahlikali vaziyatda qolib ketdi. 1878-yilgi rus-turk jangida turklar yengildi va shu yilning o'zida San-Stefan shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga asosan Bolqon yarim oroli ruslar ta'sir doirasiga kiritildi. Inglizlar ruslarning bu harakatlarini yangi rus-ingliz raqobatchiligining boshlanishi deb bildi. Bu ingliz raqobatchiligi sharqiy Yevropa va Afg'oniston hududlari uchun edi. Shu tufayli inglizlar turkiyaga ruslar bilan kurashni davom ettirish uchun harbiy ko'mak berishga qaror qildilar. Shu tarzda Usmonlilar imperiyasi inglizlar bilan qo'shib ruslarga qarshi harakat boshladi. Bu vaqtda amir Sheralixon Lord Leytin bilan siyosiy jihatdan qattiq kurash olib borar va inglizlardan yanada kuchli nafratlana boshladi. Britaniya hukumati Sheralixon ruslardan yordam so'rashidan qattiq cho'chib turdilar. Shundan so'ng Usmonlilar imperiyasi Abdulhamidga

¹ Ромодин В. А. Афганистан во второй половине XIX – начале XX вв.: Официальная история и историография. М., 1990. С.198-201.

² Ромодин В. А. Афганистан во второй половине XIX – начале XX вв.: Официальная история и историография. М., 1990. С.203-205.

Turkiya delegatsiyasini Afg'onistonga yuborishni va amirni ingliz siyosatiga ko'ndirishni topshirdi. Bunga binoan turklar Hidoyotullo boshchiligidagi delegatsiyani Afg'onistonga yubordilar. Inglizlar ularga qo'shib Hindistondagi Britaniyaning musulmon vakilini yuborishni xohladilar, ammo bu vakil to'xtatib qolindi. Chunki Sheralexon inglizlar xizmatidagi musulmon xizmatchilardan nafratlanar edi.

Bu delegatsiya Usmonlilar sultoni Abdulhamidning amirga yozgan do'stona maktubini egasiga topshirish, amir bilan muzokaralar olib borish edi. Amir Sheralexon Sultonning maktubi va muzokaralaridan inglizlarning ruslarga bo'lgan siyosatini fahmladi. Sheralexon Sultonga javob maktubi yo'llaydi va bu maktub quyidagi mazmunda edi:

“Janobu oliy hazratlarining fikrlari delegatsiya orqali va maktubingiz vositasida menga ma'lum bo'ldi. Yevropa va boshqa mintaqalar haqidagi fikrlaringiz benihoya o'rinlidir. Turli xil xabarlardan va voqealardan so'ng menga ma'lum bo'ldiki, rus askarlari sizning qarorgohingizga ham yaqinlashgan va inglizlar sizga odatiy ravishda yordam va'da qilmoqdalar, shu vaqtgacha betaraf bo'lgan davlatning bu kabi siyosati albatta qiziqarlidir. Inglizlar siyosati Usmonlilar va Britaniya munosabatlari barchaga birdek ma'lum. Biror qadimgi vaqealarni sizga aytadigan bo'lsam. Usmonlilar imperiyasi inqirozli holda qolgan bir vaqtda inglizlar unga hech qanday yordam bermagan edilar. Endi ular sizga do'st bo'lib qoldilarmi? Inglizlar haqida shunday qarorga keldim, inglizlar o'zlariga zarur bo'lgan vaqtda do'stlik rishtalarini bog'laydilar va boshqa vaqtda buni tan olmaydilar. Ular manfaatsiz ish ko'rmaydilar va ularga hech qachon ishonish kerak emas. Maktubim oxiridagi inglizlar haqidagi fikrlaringa e'tibor qilsangiz, ajablanmang inglizlar zarur bo'lgan vaqtda do'stlarini unutadilar. Umid qilamanki inglizlar borasidagi fikrimni chuqur tahlil qilib ko'rasiz. Agar xudo ularga insof berib qolsa, bunday mushkullarimiz ham osonlashar edi. Men inglizlar va ruslarni har tomonlama taqqoslab chiqdim va shunday xulosaga keldim, ruslar inglizlarga qaraganda biz uchun samimiyroq ekanlar. Shu sababli men buni sizga aytishni

vazifam deb bilaman, inglizlar bilan do'stlikni to'xtatib, ruslar bilan kelishish yo'llarini izlang.

Men xudodan oliy hazrat askarlari uchun matonat so'rayman va barcha musulmonlar ilohim zafar quchsunlar”¹.

Bu matnning mazmuni Turkiyadan oldin Britaniya tashqi ishlar vazirligiga kelib tushdi. So'ng Dezraili hukumati Lord Leytinga qandaydir bahona bilan Afg'onistonga hujum qilishiga ruhsat berdi. Shu tarzda ingliz diplomatiyasi qattiq mag'lubiyatga uchradi va Afg'onistondagi ko'p imtiyozlardan mahrum bo'ldilar.

Kobulga rus delegatsiyasining kelishi va keskin

o'zgarishlarning avj olishi?

General mayor Stoletov boshchiligidagi rus delegatsiyasi, diniy ishlar bo'yicha mutaxassislar, Zagunuv (turkey va ingliz tillari tarjimoni), tibbiyot sohasining malakali bir shifokor va leytenant qo'mondonlardan biri, qozoqlarning yegirma bir nafar qobiliyatlilari bilan Kobulga keldilar. Sant-Peterburgdan tayinlangan bu delegatsiya Turkiston viloyati rahbari general Kaufman tomonidan Toshkentda tuzilgan edi. Nogohoniy kutilmagan bir paytda Amudaryo buyiga yetib keldilar va amir bilan muzokara olib borishni mahalliy xalq vakillariga aytdilar. Mozoru-sharif rahnomosi Sherdilxon bu holatni Sheralixonga yetkazdi va u bu mehmonlarning rasmiy qabul qilishini xohlayotganliklarini aytdi. 1878-yil 22 iyulda Kobulga yetib kelgan edilar va amir ham ularni kutib olgandi.

Ular Kaufmanning nomasini amirga berdilar va Afg'oniston va Rossiya o'rtasida do'stlik shartnomasi yuzaga kelishi, bu shartnomada qadirli amirning nevarasi(Abdullaxon) ham rasmiy ishtirok etishi aks ettirilgan edi. Amir bu yetib kelgan delegatsiya inglizlarga tahdid emas edi. Lekin inglizlar bu kelgan delegatsiyadan juda sarosimaga tushib, amir bilan muzokara olib borishini umid qilardi.

Ruslarning uddaburon vakillar aynan bu vaqtda bo'layotgan Yevropa davlatlarining rahbarlari yig'ilgan Berlin konfrensiyasida edilar va inglizlar Sant Stefan kelishuvi dars ketishidan xavfsirar edi. Ruslar esa Stefan shartnomasida

¹ داکتر محمود افشار، افغان نامه، جلد 2، ایران، ص 125

inglizlarga imtiyoz berdi va Afg'oniston yuzasidan kelishib oldilar. Ularning kelishuvlari shunday ma'lumotlar keltirilgan edi. Afg'oniston inglizlarning ta'sir doirasidagi joy va Bolqonga inglizlar aralashmasligi hamda ular o'rtasidagi bolgarlarni olib tashlash bo'lgan. Ruslar ayni manashu vaqtda Stoletovni amirni gijgijlash maqsadida Afg'onistonga jo'natgan edilar. Bu ruslarning katta yolg'oni edi. Ruslar konfrensiya yuzasidan imzolayotgan vaqtda Stoletov Kobulda edi. Bu maxfiy nomani amirga berdi va amir hech qanday shartnoma imzolamasligini unga aytdilar¹.

Inglizlar amir bilan keskinlashish holati yuzaga keldi, rus delegatsiyasi amirni himoya qilish yuzasidan uzining kuchli askarlarini jo'natishi kerakligini amirga tushuntirdilar. Lekin keyin bir bahona qilib Kobuldan general Stoletov mamlakatdan chiqib ketadi. Inglizlar Afg'oniston sarhadlariga hujum qilgan vaqtda amir Kaufmanga xabar qildi va uning javobida u dedi: “ Zaytun bargini qo'liga olib inglizlarga murojat qil. Zaytun bargaining ma'nosi inglizlar bilan murosqa qilishdir”².

Amir o'z ishini davom ettirib bir noodatiy ishni tuzdi. Uning odami Sant-Peterburgga bordi va u yerda inglizlarning tajovuzlari yuzasidan jahon hamjamiyatlariga o'z shikoyatlarini yetkazdi. Ingliz vakili Leytin amirga nomalar jo'natdi va bir delegatsiyani jo'natishni aytdi. Lekin amir talab qilingan hech bir talabni qabul qilmadi. Manashu kunda ingliz askarlari Afg'onistonga kirgan edilar va bu fojea bir yosh bolaning ishi edi³.

Lord Leytin va amir Sheralixon o'rtasidagi keskin yozishmalar.

Kobulga kelgan rus delegatsiyasi ingliz siyosiy xizmatchilarini Sheralixon xatti harakatlari oqibatida tashvishga solib qo'ydi va afg'on hududidagi ingliz vakillarini ham sarosimaga solib qo'ygan edi. Lord Leytin Britaniya Hindistonining rahbari amir Sheralixonning qarshiliklarini to'xtatish va uning

¹ Коргун В. Г. История Афганистана. XX в. М., 2004. С.223-226.

² Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990 hamda xuddi shu ma'lumot Elliott, James (1968). The Frontier 1839–1947. London: Cassell. OCLC 46160081. С.165-167. Va ترجمه متن به صورت اختیاری و آزاد از جلد دوم افغان نامه از صفحه 133 گرفته شده است. Shu asarlarda ham keltirilgan edi.

³ Barthorp, Michael (2002) [1982]. Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8. P. 178-179.

qahrlarini pechka solingan cho'p kabi yuqotish kerakligi to'g'risida fikr yuritgan edi. Lekin amir huzuriga noma bilan delegatsiyasini jo'natdi. Bu nomada keskinlashish nazarda tutulmagan edi. Lekin bu noma diplomatik qonun qoidaga mos kelmasdi. Shu sababli amirga mensimay qaragan edi. U matnning to'lig'i quidagicha:

“Binobarin oxirgi vaqtlarda Kobul va boshqa joylarda men uchun joy o'rnatish kerakligini lozim ko'rdim va oliy hazrat huzurlariga bir nomani jo'natdim va keyin siz oliy hazratlari xabarlarga asosan tezda Hindiston to'g'risidagi muhim masalalarni ko'rib chiqishimiz lozim. Shu sababli inglizlar davlati sizga bir mashhur kishini jo'natishim kerakligiga ishonaman. Siz ham oliy haratlarini yaxshi taniysiz hamda men uni Kobulga jo'nataman. Bu kishi general Chamberlin janoblaridir. U kishining nomlari juda mashhur va oliy darajadagi harbiy qo'mondonlarga dars beradi. Men siz oliy hazratlari bilan muhim muzokaralar olib borishi uchun Kobulga jo'nataman. Shu sababli bu nomani Hindiston hukumatining vafodor kishisi bo'lgan G'ulom Hasinxon va siz oliy hazratlariga olib kelgandan so'ng Hindiston hukumatining maxsus vakili kelgan vaqtda oliy hazratlarining arzlarini unga bildirsalar va afg'on sardorlariga ingliz davlatining maxsus vakilini Afg'onistondan chiqib ketgungacha xavfsizligini ta'minlashi yuzasidan qaror chiqarsinlar”¹. Bu noma 1878-yil 14-avgustda yozilgan bo'lib, amir nevarasi Abdullohni janozasini amalga oshirayotgan vaqtda yetib kelgan edi (1878-yil 17-avgust). Amir nevarasining matom kunini to'rt kun deb e'lon qildi. Ingliz delegatsiyasi bu voqeadan bir hafta o'tib (25-avgust) Haybar darasiga kirib Ali Masjidiga yetib keldi. Lekin Fayz Muhammadxon ularni to'xtatdi va ular biz Kobulga xabar olib keldik va siz ijozat bersangiz Kobulga borsak deb aytishdi². Lekin ingliz delegatsiyasini Peshovarda qahr bilan kutib oldilar.

Shahzoda Abdullahonning vafoti haqidagi voqea Lord Leytinning tashkillashtirgan rejalariga xalaqit bermay, shafqatsiz Leytin va uning ansorlari ham ko'mak berish maqsadida keskin boshqaruvlarni rivojlantirdi.

¹ Мир Хоссейн. Афганистан в международных отношениях второй половины XIX века: Афтореф. дис. ... канд. ист. наук. М, 1995. 56-58.

² Мир Хоссейн. Афганистан в международных отношениях второй половины XIX века: Афтореф. дис. ... канд. ист. наук. М, 1995. 68-69.

Chemberlen boshchilik qilayotgan delegatsiya shu tartibda bir ingliz qo'mondoni bilan Kobulga yo'l olgandi. Ularning yurishlarida ming svoriy va bir nechta tup otadigan zamparaklar bilan yo'l olgan edilar. Shu tariqa ularning sonlari delegatsiyaning ko'p qismini tashkil qilardi. Navob G'ulom Hasinga boshqaruvni bergan edi va u amirga aytdiki tezlikda rus delegatsiyasini Kobuldan chiqarish ingliz xizmatchilarini o'z mamlakatida qabul qilish kerak. Ingliz boshqaruvi tashqi siyosatni ijro etishga ruhsat berish, buning evaziga inglizlar har yili amirga o'n ikki ming rupiya to'lashi, bundan tashqari har bir ingliz vakili amirning tanlagan taxt vorisini qabul qilishini tan olishi belgilab qo'yilgan edi. (bu vaqtda Abdullaxon vafot etgan edi).

Sentyabr oyida London gazetolari bu jarayonlarning to'liq tavsilotlari to'g'risida nashr qildi. Ingliz gazetolari hindiy tilda Britaniya Hindistoni hukumati vositasida uch ming askar yig'ilishi juda ko'plab tavsilotlar bilan nashr ettirdilar. Hindiston tarafdan amirga ko'plab tahdidli nomalar yetkazildi, 1878-yil 2-oktyabrda amir bu nomani qabul qilib uning nomasiga javob shaklida bir noma jo'natdi.

“ Men sizning nomingizni mutoalo qilib taajubda qoldim. Zero bu noma tahdidli va achinarli edi. Bir do'st tomonidan boshqa do'st uchun davlat tomonidan do'stli sifatida yozilganga o'xshaydi. Haqiqatdan taajubga olib keladi. Kelgan delegatsiya agar bu haqiqiy bo'lsa, uning natijasi va uning samarasi nima bo'ladi? Shuningdek mening ishchilarimga jo'natilgan boshqa uch noma mening oldimda turibdi. Uning hammasi keskinli yozilgan bo'lib, umuman tartib qoida asosida yozilmagan. Bundan tashqari katta musibatlarga duchor kelishiga olib kelishi mumkindir. Ingliz davlatining rahbariyati tomonidan men uchun juda katta xavfsirashni yuzaga keltirishdilar buning eng yaxshi usuli qo'lni qo'lga berib muzokaralar o'tkazish joyini tayinlashimiz kerak deb o'ylayman. Bir do'stning bildirishlari deb biling, sizning amallariningiz manimcha noto'g'ri deb o'ylayman. Mening ishchilarim tomonidan ingliz davlatining vakillariga hech qachon do'shmanlik bildirmaydi. Ular sizning mamlakatingiz bilan jang yuzaga kelishini xohlamaydi. Lekin bizning davlat bilan muzokaralarda har qaysi davlat

dushmanlik bildirsa, biz ham bu vaqtda ularga dushmanlik bildiramiz va ularni taslim bo'lishiga erishamiz"¹. Bu ikkita nomada yuqoridagi ma'lumotlar yozilgandi.

Inglizlar janga kirishga qaror qabul qildilar.

Bechora amir bo'rilardan bir ahvolga tushib qolgan edi va har tarafdin unga ta'ziyiq o'tkazardi. U uchun bir pinhoni bo'lgan Berlin Konferinsiyasi bo'layotgan yili Rossiya vakili general Stalinov unga shunday dasturni bergan edi. Lekin amir hech bir shartnomani imzalamadi. Kobulda amir bilan Rossiya o'rtasidagi aloqalarni bahona qilib unga e'lon qildi. "Ruslar amir ustidan hukmronlik qilar edi, boshqalari esa unga hamfikr emas edi, lekin ularning fikrlarini inobatga olmas edi. Shuning uchun biz Ruslardan Afg'onistonni va bu amirdan qutqarishimiz kerak"².

Inglizlar juda harakatchanlik bilan jiddiy bir nomani amirga jo'natdi va Kobulda o'z delegatsiyasini qabul qilishni taklif qildi, lekin amir buni qabul qilmadi. Bu vaqtda amirning o'g'li Yoqubxon zindonda edi va uni ham ozod qilishni taklif qilishadi. Bularni rad etadi. Amirning boshqa bir o'gli Ayubxon esa Hirotda edi. Ayubxondan boshqa barcha akalari inglizparaz edi. Bu uni juda ranjitar edi.

1878- yili Sheralixon ingliz missiyasini Kobul shahrida qabul qilishdan bosh tortdi. Bunga javoban Lord Leytin markaziy hukumatga xabar jo'natib va u Afg'oniston bilan jang e'lon qilinishini va ingliz askarlari bu mamlakatga kirishini xohlashini bildirgan edi. 25-oktyabrda markaziy idora javob jo'natdi " Hozir biz bu davlatga qudratli askarlarimizni jo'nata olmaymiz. Markaziy hukumat bundan so'ng bizning askarlarimiz amir sarhadlaridan olinishi va amirdan uzur so'rashimiz lozim. Bundan tashqari Afg'oniston hududida elchixona ochishga erishishingiz kerak. Amir bizning delegatsiyamizni qabul qilishi lozim agar bizning delegatsiyamizni qabul qilishdan bosh tortsa unda biz harbiy holatda bo'lishimiz

¹ ترجمه متن به صورت اختیاری و آزاد از جلد دوم افغان نامه از صفحه 153 گرفته شده است.

² Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990. 226-227

kerak”¹. Hukumat raisi Dizraelov Lord Leytin tarafdori edi. Bu haqida “Gilliy news” gazetasi to’liq ma’lumotlarni o’sha vaqtda batafsil berib borar edi.

Shu tariqa ingliz askarlari uch tomondan general qo’mondon Barovon, general qo’mondon Robert va general qo’mondon Stovorot Afg’onistonga kirdilar.

Angliyaga qarshi fikrlar Afg’onistonga qarshi bosqinchilik urushi ochishga bahona bo’ldi. 1878- yil 20- noyabrda Afg’onistonga qarshi urush harakatlari boshlandi. Mazoru-Sharifda Sheralixon vafot etgach (1879- yil 29- fevral) taxtga o’g’li Yoqubxon o’tirdi. U inglizlar yordamida hokimiyatni saqlashga harakat qildi. Shu maqsadda inglizlar bilan 1879- yil may oyida Gandamak degan joyda bitim tuzildi. Afg’oniston amalda mustaqilligini yo’qotdi. Bu shartnomaning qisqacha mazmuni quidagicha:

1. Bu shartnoma imzolangandan so’ng ikki mamlakat o’rtasida doimiy tinchlik va do’stlik barqaror bo’lajak;
2. Bu shartnoma imzolangandan so’ng Afg’oniston amiri o’z e’tiborini jang vaqtida Angliya davlati bilan aloqalar o’zaro xat yozishmalarni inobatga olib, rasmiy uzur farmonini e’lon qiladi;
3. Afg’oniston amiri boshqa davlatlar bilan muzokaralar olib borishda Angliya davlati bilan muzokar olib borishi. Hamda ingliz davlati rozilik bildirgandagina amalga oshira olishi. Boshqa davlatlarning hujumida bu davlat ortida turishi kerakligi va bu hududdagi barqaror xavfsizlikni ta’minlash huquqini olishi Britaniyaga berildi;
4. Bu ikki mamlakat o’rtasidagi munosabatlarni yanada yaqinlashtirish maqsadida va Afg’oniston hududiga boshqa tazyiqlardan himoyalash uchun Britaniya davlati doimiy bir vakilini Afg’onistonga jo’natadi. Bu vakilning buyruqlariga asosan barcha ishlar amalga oshiriladi. Bu vakillarning xavfsizligi amirning buyniga tushadi va bir guruh vakillarni afg’on hududiga jo’natadi. Buning evaziga afg’on vakili Hindiston hududiga jo’natiladi;

¹ Сальникова А. В. Англо-русское соперничество в Центральной Азии в последней трети XIX – начале XX в.: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Владимир, 2009. 58-59.

5. Afg'on amiri o'zini ma'sul bilib, ingliz vakillari bilan kelishgan holda Afg'oniston tashqi ishlarini amalga oshirib ularning vakillarini qo'llashi kerak;
6. Afg'oniston amiri o'z tomonidan ingliz vakillari bilan kelishgan holda bir guruh askarlarni ta'yinlaydi va amirning shaxsiy askarlari bo'lmasligiga va'dasi beriladi.
7. Amir Angliya bilan iqtisodiy masalalarni hal etadi. Hamda ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy hamkorlik tuziladi. Bu boshida bir yil muddatga tuzilishi belgilab qo'yiladi.
8. Kobuldagi barcha xarajatlar Angliya yelkasiga tushadi va soliqlarni to'lash amirning yelkasiga tushadi.
9. Ikki mamlakat o'rtasida mustahkamli ko'rinishga ega bo'lgan kuch va Afg'oniston zaminidan ingliz askarlari qanday yo'llarda chiqib ketishi aytib o'tiladi.
10. Afg'oniston amirining barqaror iqtidori va Britaniya davlatiga sodiqligiga va'da berishi keltirib o'tilgan edi.

Bu shartnoma imzolanganidan so'ng Kobulda ingliz rezidensiyasi ochildi. Uning vazifasi afg'on amiri xatti-harakatlari hamda Angliyadan yuboriladigan qarzlarni qanday sarflanayotgani ustidan nazorat qilish edi. Amir Yoqubxonning taslimchilik siyosati mamlakatda keskin qarshilikka uchradi. 1879-yil avgust oyida Kobulda qo'zg'olon ko'tarildi. Shaharliklar ingliz rezidensiyasiga bostirib kirib, uni egalladilar. Inglizlar Gandamak bitimidan keyin qaytarib olib ketgan qo'shinlarini yana Afg'onistonga tashladi. Inglizlar katta kuch bilan Kobulni qayta egalladilar. Bu orada Afg'onistonning sobiq amiri M. Afzalxonning o'g'li Abdurahmon qo'zg'olonchi qo'shini bilan Kobulni o'rab oldi. Inglizlar tang ahvolda qoldilar. 1880- yilning boshida Abdurahmon Shimoliy Afg'onistonda o'z hokimiyatini o'rnatdi.

Inglizlar Abdurahmon bilan muzokaralar boshlashga majbur bo'ldilar. Abdurahmonga Kobul topshirildi. Qandahor Angliya ta'sir doirasida qoldi. Bularning evaziga Afg'oniston Angliya hamda ingliz Hindistonidan boshqa biror

chet el mamlakati bilan diplomatik aloqa qilmaslik majburiyatini oldi. Abdurahmon faqat ichki siyosatdagina nisbatan mustaqillikni saqlab qolishga erishdi.

Afg'oniston taxtining qonuniy vorisi amir Sheralixonning o'g'li Ayubxon Qandahorga yurish boshladi. 1880- yil 27- iyul kuni Mayband qishlog'i yonida jang bo'ldi. Ingliz harbiy brigadasi yanchib tashlandi. Inglizlar yangi harbiy qismlar chaqirishga majbur bo'ldi. Bu yangi kuchlar Ayubxonni Hirotga chekinishga majbur etdi. Lekin, aholining qattiq qarshiligi tufayli inglizlar Qandahorni tashlab chiqib ketishga majbur bo'lishdi. Shunday qilib, ikkinchi ingliz-afg'on urushi Angliyaning mag'lubiyati bilan tugadi.

II BOB. XX ASR BOSHLARIDA AFG'ONISTON UCHUN INGLIZ-RUS RAQOBATCHILIGINING YANGI BOSQICHI VA OQIBATLARI

2.1. XX asr boshlarida Afg'oniston uchun ingliz rus raqobatchiligi

Afg'oniston xalqi uzoq davr davomida o'z vatanining ozodligi va mustaqilligi uchun qahromonona kurashib keldi.

O'rta Osiyo bo'sag'alarida joylashgan Afg'oniston o'z geografik o'rniga ko'ra Angliya uchun qadimdan harbiy-strategik ahamiyatga ega edi.

XIX asr davomida ingliz mustamlakachilari o'z hind mulklari shimoliy chegaralarini mudofaa qilish niqobi ostida afg'on xalqiga qarshi ikki marta urush boshladilar. Bunda ular Afg'onistonni o'z mustamlaka mulklariga qo'shib olishni va O'rta Osiyoga nisbatan bosqinchilik planlarini amalga oshirishda uni harbiy-strategik bazaga aylantirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yidilar.

1873 – yildagii ingliz – rus shartnomasida roshani, Shugnani va Vohani (G'arbiy Pomir) Afg'onistonga kirmasligi ta'kidlangan edi. Afg'onlar tomonidan turkman yerlarini qo'shib olinishi maqsadida inglizlar Rossiyaga Afg'onistonning shimoliy – g'arbiy chegarasini aniqlab olish uchun muzokaralarga kirishishni taklif qilishadi. Shundan keyin chegaralarni aniqlash bo'yicha ingliz – rus komissiyasi tuziladi. Bu jarayonda afg'onlar o'rniga hamma masalalarni inglizlar hal qilishadi. Inglizlar ish yuritishidagi noaniqliklari bilan komissiya ishini murakkablashtirib yuboradilar va muzokaralar oxiriga yetma to'xtatiladi.

Pendin vohasining o'zida qolishini xoxlagan Rossiya afg'onlarni turkman yerlarini bosib olganligiga qarshi Angliyaga norozilik bildiradi. O'z noroziligini pendinga harbiy qo'shin yuborish bilan bildiradi. 1885–yil 18–martda toshko'prik yonida rus – afg'on qo'shinlarining to'qnashuvi bo'lib o'tadi va bu jangda afg'onlar mag'lubiyatga uchraydilar. Aynan shu toshko'prik yonidagi voqealar bohonasida Angliya Abdurahmonxonni Rossiya bilan urushga tortmoqchi va unga yordam berish uchun afg'oniston hududiga o'z qo'shinlarini olib kirmoqchi bo'ladi. Ammo amir 1885 – yil aprel oyida Hindistonning sobiq qiroli bilan

uchrashadi va bu uchrashuvda Pendin hududi afg'onlarga tegishli emasligini va Rossiyaning haqliligini aytadi¹.

1885 – yil may oyida ingliz – rus chegarasini aniqlash komissiyasi o'z ishini davom ettiradi va 1887 – yilda o'z ishini yakunlaydi. Bu yakunga ko'ra Afg'onistonning chegara chizig'i shimoliy – g'arbda Hoji – Solih zulfagor chizig'i bo'ylab o'tkazildi. Pendin vohasi Rossiya tarkibida qoldirildi.

1893 – yil Afg'oniston amiri Abdurahmonxon Britaniyaning Hindistondagi boshqaruv vakili janob Mortimer bilan Dyurand kelishuvini imzolaydi. Shu kelishuvga asosan afg'oniston va Britaniya chegaralari belgilanadi. Chegara Beluj va pushtun qabilalari yerlaridan o'tib ingliz – afg'on yerlarini ikkiga bo'ldi. Bu chegara natijasida Rossiyaning Hind okeaniga chiqish yo'li to'sib qo'yiladi².

Ikki marta bo'lib o'tgan ingliz-afg'on urushlari va 1893 yildagi Dyurand bitimi natijasida Angliya hamma afg'onlarning yarmidan ko'prog'i yashagan afg'on oblastlarini Afg'onistondan zo'rlik bilan tortib oldi va ularni Hindistondagi o'z mustamlaka mulklariga qo'shdi.

Ikkinchi ingliz-afg'on urushidan so'ng Afg'oniston aholisining asosiy qismi yashaydigan o'z territoriyasining katta qismidan ajralishidan tashqari, u Angliyaga qaram mamlakatga aylantirildi. 1879 yildagi Angliyaning Afg'onistonni asoratga soluvchi Gandamak shartnomasiga muvofiq, u Britaniya hukumatidan ijozatsiz boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish huquqidan mahrum etildi.

XX asr boshiga kelganda esa ingliz-rus raqobatchiligining yangi bosqichi yuzaga keldi. Bu davrda ingliz va rus siyosatchilari endi afg'on xalqiga zurlik yo'li bilan o'zlariga qaratib olish mumkin emasligini bilib, ular bilan muzokaralar olib borish kerakligini tushinib yetdilar va bir qator shartnomalar imzolandi. Misol uchun 1905-yildagi kelishuv³.

1905-yilgi ingliz afg'on kelishuvi

1880-yilning iyun va iyul oylarida Afg'onistondagi siyosiy harbiylar boshlig'i janob Lepel Griffen va Amir Abdurahmonxon o'rtasidagi ikki tomonlama

¹ Мухин Ю. И. Афганский фронт СССР. М., 2009. С. 54-58.

² Ромодин В. А. Афганистан во второй половине XIX – начале XX вв.: Официальная история и историография. М., 1990. 248-249.

³ Панин С. Б. Россия и Афганистан. 1905-1918. Иркутск, 1995 va 154 ص غبار؛ مسیر تاریخ، افغانستان در

kelishuvda harbiy tuzilmalarni kengaytirish nazarda tutilgandi. 1901-yil 30 oktyabrda Amir Abdurahmonxon vafotidadan so'ng Britaniya Hindiston hukumati Amir bilan bo'lgan ikki tomonlama shartnomani talab qildi va shu sababli uning vorisi bilan yana muzokara olib borishga uni majburladi. Hindiston hukumati Afg'oniston hududida "lebiral savdo sotiqqa oid siyosat"ni o'z ichiga olishiga yon berish va o'zgarishi, Mahmand chegarasini aniqlash (Afg'oniston va Hindiston o'rtasida) urug'lar va qabilalar (Hindiston) chegaradan tashqaridagi siyosatga Afg'oniston aralashmasligiga harakat qildi. Britaniya afg'on qo'l mehnatida yaratilgan mahsulotlarni taqiqlash va yordamga beriladigan pulni to'xtatish, tazyiq o'tkazishni yanada kuchaytirdi, ammo Amir Habibullaxon taslim bo'lmadi.

U Kobulga Hindiston tashqi ishlar rahbari bo'lgan Luis.V.Daneni taklif qildi. Hamda ular o'rtasida muzokaralar boshlanib ketdi. Muzokaralarning uchinchi oyidan so'ng 1905-yil 21-martda Kobul kelishuvida Hindistonning kuchli hukumatining tashqi ishlar sekretari Luis.V.Dane Afg'onistonning ozod qirolligi va uning majburiyatlarini ko'zda tutgandi. Amir Habibullaxon uchun bu bir g'alaba bo'ldi, Britaniyaning har qanday urinishlari mag'lubiyatga uchradi, yordamga berilgan pullarni esa Afg'oniston hukumati to'laydigan bo'ldi va Britaniya Afg'onistonning ichki ishlariga aralashmasligini tasdiqladi. Manashu kelishuv 1919-yilda Amir Omonullaxon tomonidan inkor qilinmagunga qadar kuchida qolgandi. Bu bilan ingliz vakillari nimaga erishdilar. Ular bu davlat bilan mojarolar qilish xohishi yo'qligini vaqtincha bildirib turdilar.

1907 yildagi ingliz-rus bitimi bo'yicha Rossiya Afg'onistonni "rus ta'sir doirasidan tashqarida" turgan davlat deb tanidi va "Afg'oniston bilan o'zining hamma siyosiy munosabatlarini Britaniya hukumati vositasida olib borish" majburiyatini oldi¹.

Bu bitim Britaniya va Rossiya o'rtasidagi ikki tomonlama shartnoma 1907-yil 31-avgustda yakunlangandi. Bu uzoq davom etgan tinchlik regionlaridagi tog'larga va Markaziy Osiyodagi kerakli chegaralarning xavfsizligini ta'minlash vaqtida bo'lgan edi. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi ta'sir doirasiga Eron belgilangan

¹ R. P. Churchill, The Anglo-Russian Convention of 1907, Cedar Rapids, Iowa, 1939. P.54-53.

Afg'oniston shimolidagi mahalliy afg'on rasmiylari bilan siyosiy bo'lmagan ta'biy munosabatlarga to'g'ri kelishda Rossiyaga ruhsat etilgan va savdo-sotiqqa oid imkoniyatga teng bo'lishi uchun ta'minlangan. Tibet, Xitoy mustaqilligi ostida bo'ladigan bo'ldi ammo Britaniya diniy ashyolarda Dalai Lama bilan Rossiya Buddistlari shug'ullanayotgan vaqtda savdo-sotiq ashyolari Tibet bilan aloqa olib borishdan ozod bo'lgan edi. Shunga qaramay Britaniya Rossiya agressiyasi fitna qilishidan Afg'onistonni saqlashga, 1905-yilgi majburiy shartnomani davom ettirgandi va Rossiya Afg'oniston uning ta'sir doirasidan tashqarida deb e'lon qildi, Amir Habibullaxon uning boshida turib "Afg'oniston Muommosi"ni xal qilishga bir urinish kabi bu shartnomada ko'rgandi. Amir Habibullaxon yanvarda Hindistonga bir davlat tashrifi sifatida bo'lgan edi. 1907-yilda Britaniya va Rossiya kelishuv muzokara olib boradilar, ammo u 1907-yil 10-sentyabrgacha yig'ilish to'g'risidagi barcha ma'lumotlar oshkor qilinmagan edi. U Britaniya tomonidan unga xiyonat qilganini sezib qolgan edi, hamda u shu qadar qo'rqqan edi-ularning u kelishuvga rozi bo'lishiga iltimos qilganida u kelishuvni barbod bo'lishi, uning javobi bilan bir yil vaqt olgandi. Rossiya hech qachon siyosiy va savdo sotiqqa oid yordam olishga erisha olmagan va Bolshevik hukumati osiyolik qo'shnilariga yaxshi niyatda g'alaba qozonishiga bir urinishidagi 1918-yilgi shartnomani rad etgandi. Boshdan bir "vafot etgan xat" bo'lgan shartnoma, uzoq Afg'onistondek tashvishlantirgan edi¹.

Bu kelishuvga binoan ingliz- rus vakillari o'zlaricha hududlarni bo'lib olgan edi.

¹ R. P. Churchill, The Anglo-Russian Convention of 1907, Cedar Rapids, Iowa, 1939. P.56-58.



1907-yilgi ingliz va rus kelishuvi natijasida belgilangan hududlar.

Bundan keying ingliz va rus raqobatchiligi birinchi jahon urushi arafasida yuzaga kelgan edi.

Birinchi jahon urushining oxirlariga kelib Angliya Afg'onistonda tanho hukm surdi, uni irodasi sust Habibullaxon yordamida afg'on mamlakati chegarasida sovet siyosatini kamytirishga erishdi.

Bu to'g'risida rus vakillari shunday degan edilar “Afg'onistonni o'ziga butunlay bo'ysundirib olib, Hindistonda mustahkamlanib olgan inglizlar o'z mustamlaka mulklarini kengaytirish, millatlarni asoratga solish va Sovet Rossiyasiga hujum qilish uchun allaqachon tayanch punkti barpo qilgan edilar”¹.

Ingliz imperialistlari Afg'onistonni o'z ta'siriga olib uning feodal qoloqligini abadiylashtirdi, bu mamlakat xalqlarining iqtisodiy va madaniy tomondan yuksalishiga to'sqinlik qildi.

Ammo jasur afg'on qabilalari Britaniya hukmronligiga qarshi muntazam kurash olib bordilar va Hindistondagi ingliz ma'muriyatining rasmiy terminologiyasida "doimiy chegara urushi" degan o'ziga xos ibora paydo bo'ldi².

¹ Зокидов О. М. Основные вопросы истории Афганистана и русской дореволюционной и советской историографии: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1991. С.78-79.

² Barthorp, Michael (2002) [1982]. *Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947*. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8 p. 49-56.

Hatto quyidagi faktlarning o'zi bu shiddatli va uzoq davom etgan urushning ko'lamini to'g'risida tasavvur bera oladi: 1896 yildagi Chitrol ekspeditsiyasida 7 ta ingliz—hind piyoda polki, 3 ta otliq polk, va ikkita sof ingliz polki qatnashdi; 1897 yildagi Tarax ekspeditsiyasida ikkita Panjob piyoda polki, to'rtta Gur o'qchi polki va oltita sof ingliz polki ishtirok etdi¹.

Ingliz mustamlakachilariga qarshi kurash afg'on xalqini chiniqtirdi, ozodlikka muhabbat va zolimlarga nisbatan g'azab uyg'otdi. “Butun Osiyo bo'ylab harakat”ni yuzaga keltirgan 1907 yildagi ingliz-rus shartnomasi Afg'onistonning ijtimoiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Afg'onistonda mamlakatga mustaqillik berilishini talab qiluvchi siyosiy gruppalar paydo bo'la boshladi. Yosh afg'onlar deb atalgan gruppaga eng nufuzli gruppaga edi.

Yosh afg'onlar afg'on intelligenstiyasi, savdogarlar va ofisterlarning ilg'or qismlaridan iborat guruh bo'lib, asosan chet ellarda yoki Qobildagi “Habibiya” maktabida Yevropa tipidagi birinchi afg'on dunyoviy bilim yurtida ta'lim olgan yoshlar hisobiga to'lib turar edi. Bu yoshlar “Sirojul axbor” gazetasi atrofiga uyushgan edilar. Yuqorida nomi aytilgan gazetaning muharriri Mahmud Tarziy bu yoshlarning g'oyaviy rahbari edi.

Yosh afg'onlar Afg'onistonni to'liq mustaqillikka erishtirish, ichki islohat o'tkazish va hatto konstitutiya joriy etishni o'zlarining asosiy vazifalari qilib qo'ydilar.

Inglizlarning qistovi ostida 1908 yilda amir Habibullaxon yosh afg'onlarning talablariga repressiya bilan javob berdi, ularning ko'zga ko'ringan rahbarlari doktor Abdulg'ani, Said Buxoriy, Nasafali va boshqalarni turmaga qamadi. Lekin bunday jazolar yosh afg'onlar harakatini to'xtata olmadi.

Yosh afg'onlar harakati 1914—1918 yillarda, birinchi jahon urushi davrida ayniqsa kuchaydi. Bu urush davrida yosh afg'onlar Hindistondagi revolyutsion harakatlar, ingliz hind qo'shinlarining Yevropa va Yaqin Sharq frontlariga ko'chirilish Britaniyani holdan toydiradi va bu bilan Afg'onistonning

¹ Barthorp, Michael (2002) [1982]. *Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947* 154-156.

mustaqillikka erishuvini ta'min etadigan qulay sharoitlar yaratiladi, deb o'ylagan edilar.

Bu vaqtda ingliz va ruslar o'rtasidagi raqobat Afg'onistonning mustaqillik uchun olib borgan kurashiga zo'r ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrga kelib Afg'onistonda ahvol juda og'irlashdi, Ingliz imperialistlari Eronning Afg'oniston bilan qo'shnisi bo'lgan Xuroson viloyatida ko'p kuch to'plab, Eronni oshkora ravishda bosib ola boshladilar. Barthorp, Michaelning asarida Xurosonning inglizlar tomonidan bosib olinishi to'g'risida 1918 yilning 25 aprelida Birjondan Toshkentga quyidagi ma'lumotlat keltirilgan edi: "Qismlarning harakati janubdan gruppalariga ajralgan holda ikki yo'nalishda: biri—Birjond. orqali, ikkinchisi—Nex bilan Birjond o'rtasidagi Sarbish orqali va so'ngra—Darmiyon—Kezik—Xaf orqali davom etadi 19-piyoda polkida ming kishi bor. Hindistondan 2 otliq polkning kelishi kutilmoqda"¹.

Qandahor ostonalarida joylashgan muhim ingliz harbiy bazasi Kvettadan boshlanib, Afg'onistonning janubiy chegaralari bo'ylab o'tib, Eron territoriyasidagi Duzdobgacha davom etgan temir yo'l qurilishi sur'atining tezlashtirilgani to'g'risida ham ma'lumotlarni ko'zatish mumkin edi. Ingliz imperialistlari Duzdobdan sovet chegarasiga yaqin joydan Mashhadgacha avtomobil yo'lini qurdilar. Bu yo'l Afg'onistonning butun g'arbiy chegaralari bo'ylab o'tardi. Shunday qilib, inglizlar uchun harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar Afg'onistonni uch tomon" dan o'rab olgan edi².

Uchinchi ingliz-afg'on urushi.

1919 yilning 3 martida yangi afg'on hukumati Hindistonning vitse-koroli Lord Chel'msfordga maktub bilan murojaat qildi. Afg'oniston hukumati o'z xatida sobiq huquqqa teng bo'lmagan shartnomalarni bekor qilganini ma'lum qildi va shartlashuvchi har ikki mamlakatning mustaqilligini o'zaro tan olishga asoslangan munosabatlar to'g'risida yangi shartnoma tuzishga tayyorligini bildirdi.

¹ Barthorp, Michael (2002) [1982]. *Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947* 156-158.

² Симонов К.В. Афганистан в политике великих держав и Османской империи на Среднем Востоке. 1899-1918: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Воронеж, 2001. С 79-81.

Yaqindagina Sovet Turkistoniga ketgan va u yerdan Moskvaga, keyinchalik Yevropaga o'tishi kerak bo'lgan Favqulodda elchilar Yevropa, Osiyo va Amerika mamlakatlariga Afg'onistonning mustaqil deb e'lon qilinganini ma'lum qilishi kerak edi.

Imperialistik Anigliya Afg'onistonga o'z Hindiston mustamlakasining qo'shimchasi sifatida qarar edi va o'zining mustamlakachilik hukmronligidan tushib qolishini istamas edi. Sharq mamlakatlariga nisbatan Angliyaga xos takabburlik bilan Hindiston vitse-koroli afg'on hukumati xatiga javob bermadi. Buning o'rniga Afg'oniston chegaralarida Afg'onistonga qarshi yangi bosqinchilik urushi boshlash maqsadida ingliz qo'shinlarini to'play boshladilar.

Afg'oniston hukumati mamlakat oldida turgan xavfning oldini olib, inglizlarga qarshi qurolli zarba barishni uyushtirishga tayyorlik ko'ra boshladi. Amir Omonullaxon chet el qo'shinlari hujumlarining oldini olish va o'z chegaralarini mustahkamlash uchun quyidagi rayonlarda ma'lum sonni tashkil etgan soldatlardan iborat qo'shinlarga uchta qo'mondon belgiladi. Solih Muhammadxon — Jalolobodga, Muhammad Nodirxon — Xost va Argunga, Sardor Abdul Qud-duqxonni—Qandahorga qo'mondon qilib yubordi.

1919 yilning 3 mayida Haybar tomonidagi harakatlar bilan uchinchi ingliz-afg'on urushi boshlanib ketdi. Bu urushdan oldin birinchi jahon urushida qatnashgan ingliz armiyasi jangovar tajribaga ega bo'lib, o'sha davrning eng yaxshi texnikasi, va qurol-yarog'i bilan ta'minlangan va o'z tarkibida harbiy aviatsiyasi bor edi.

Haybar tomonidagi kuchlar munosabati quyidagicha edi.

Afg'onlarda: Piyodalar—14 batal'on, otliqlar— 11/2 polk, To'p — 48, Saperlar—1 brigada.

Inglizlarda:Piyodalar— 22 batal'on, Otliqlar— 6 polk, To'p— 66 + 104 pulemyot, Saperlar— 2 dala otryadi.

Ingliz tarixchisi shularni yozgan edi: “Afg'onistonning mustaqilligini Buyuk Britaniya tan olishi to'g'risida Afg'oniston hukumati va xalqinyng talabi ingliz-afg'on urushining boshlanishiga sabab bo'ldi. Buyuk Britaniya mamlakat

mustaqilligini tan olishga oid afg'on hukumatining talabini rad qilgandan keyin, Afg'oniston hukumati ko'shinlar yuborishga kirishdi". U o'sha davrda Afg'onistondagi siyosiy sharoitni qisqacha ta'riflab, shularni yozdi: "Agar inglizlar muzokaralar yo'li bilan Afg'onistonning mustaqilligini tan olmagan taqdirda, qurol kuchi bilan mustaqillikni mudofaa qilish uchun juda muhim istehkomlar qurish maqsadida qo'shinlar yuborilgan edi"¹. Lekin ingliz samolyotlari afg'on qismlariga ancha talofat yetkazib, afg'on qo'shinlari qismlarini bombardimon qilishga kirishdilar. "Shundan keyin, — davom etadi, u, — Omonullaxon inglizlarga qarshi muqaddas urush e'lon qildi. Shuni ham aytish kerakki, inglizlar, bizga birinchi bo'lib hujum qildilar deydi Shoh Omonullaxon"².

Uchinchi ingliz-afg'on urushi Afg'onistonning mustaqillik uchun olib borgan adolatli urushi edi. Jasur afg'on xalqi qo'lga qurol ushlagan holda o'z yerini himoya qilishga otlandi. "Qabilaning jangchi va askarlari,— deb yozadi Barthorp, Michael,— Sipohsolorga ozodlik va vatan shuhrati uchun fidokorona kurashga qat'iy qaror berganliklarini yakdillik bilan ma'lum qildilar"³.

Afg'onistonning mustaqillik uchun olib borgan urushi qatnashchisi bo'lgan keyinchalik esa Qandahordagi jun to'qish fabrikasining direktori Muhammad Ibrohim shunday degan ekan, mamlakatning hamma aholisi, shu jumladan xotin-qizlar ham, ingliz bosqinchilariga qarshi kurashga otlanganliklarini aytdi. "Mening o'zim,— dedi u, 15 kishini, shu jumladan biz bilan birga dushmanga qarshi kurashgan ikkita ayolni (Ishoqzey va Saidabibini) miltiq bilan ta'minladim"⁴.

Pushtu tilida asarlar yozgan mashhur yozuvchi va shoir,, Afg'onistonning mustaqillik uchun olib borgan urushi qatnashchisi Soubemli Sarhad Muhammadxon Mir Hiloliy 1957—58 yilda Peshovarda nashr etilgan "Nangiyali pushtana" kitobida 'qurollangan afg'on yoshlari yuqori axloqqa ega bo'lib, zo'r

¹ Мохаммад Д. Законодательные акты эмира Амануиллы-хана как исторический источник (1919-1929): Афтореф. дис. ... канд. ист. наук. М, 1995. С. 48-50.

² Мохаммад Д. Законодательные акты эмира Амануиллы-хана как исторический источник (1919-1929): Афтореф. дис. ... канд. ист. наук. М, 1995. С.65-67.

³ Robson, Brian (2007). Crisis on the Frontier: The Third Afghan War and the Campaign in Waziristan 1919–1920. The History Press. ISBN 1-86227-403-7. P.98-96.

⁴ فضل ربی پژواک بین المللی روابطو تاریخ، کابل، ص 16-19

zavq-shavq bilan armiyaga kirdilar”, “afg'on xotin-qizlari va yoshlari janglarda o'z mardliklarini ko'rsatdilar”, ular Qandahor va Dakka yaqinidagi jang maydonlarida:

Yagona shodligim shu: “Yovga qarshi boraman Yosh pushtu qo'ldoshimdir Yovdan qasos olaman, —deb, qo'shiqlar aytganliklarini” yozadi¹.

Haybar yo'nalishida afg'onlar uchun sharoit noqulay bo'ldi. Ikki kunlik shiddatli janglardan so'ng. afg'on qo'shinlari chegarada joylashgan Dakka shaharini tashlab chiqdilar, Jalolobod tomoniga chekindilar va bu yerda mustahkam o'rnashib oldilar.

Qandahor — Quveyt yo'nalishida kuchli to'qnashishlar ro'y bermadi. Afg'onlar bu yerda mudofaada turdilar. Urushning dastlabki kunlaridayoq ingliz qo'shinlari to'satdan hujum qilib, afg'onlarning chegara porti Sipin — Beldakni bosib oldilar.

Afg'onistonning hozirgi shohining otasi general Nodirxon qo'mondonlik qilgan Xost yo'nalishida sharoit afg'onlar uchun qulay bo'ldi. 23 mayda afg'on armiyasi uning qo'mondonligi ostida Xostdan hind territoriyasiga hujum boshladi. Chegaradan o'tgan afg'on qo'shinlariga 20 ming jangchi to'plangan vazirlar va Hindistonning chegara joylarida yashagan boshqa afg'on qabilalari ham kelib qo'shildilar.

Bu urushning qatnashchisi, afg'on tarixchisi Burhoniddin Kushkekiy “Nodiri Afg'on” kitobida bu to'g'rida shularni yozgan edi: “Bu kishilar birlashish va urushda qatnashish niyatlarini izhor qildilar”. “Vazirlar va ularning hamma militsiyasi,— deb yozgan edi afg'on professori Ahmadali Ko'hzod, — itoat etmay qo'ydilar va mustaqillik uchun muqaddas urushda o'zlarining afg'on birodarlari bilan qo'lni qo'lga berib kurashdilar”².

Afg'on armiyasi jangchilari va chegara atrofida yashagan qabilalar ingliz qo'shinlariga qaqshatg'ych zarba berdilar, ingliz qo'shinlari shoshilinch ravishda orqaga chekindilar. Musulmonlar va hindlardan iborat ingliz-hind militsiyasi soldatlari katta va kichik ofitserlar boshchiligida to'da-to'da bo'lib afg'on armiyasi

¹ Robson, Brian (2007). Crisis on the Frontier: The Third Afghan War and the Campaign in Waziristan 1919–1920. The History Press. ISBN 1-86227-403-7. P.58-86.

² Omissi, David E. (1990). Air Power and Colonial Control: The Royal Air Force, 1919–1939. New York: Manchester University Press. ISBN 0-7190-2960-0, p.96-98

tomoniga o'tdilar. 1919 yilning 27 mayida afg'on armiyasi partizanlar yordamida hindlarning chegarasida Joylashgan Tal shaharini egalladi va Hind daryosi vodisiga tomoniga yo'l ochdi. Inglizlar og'ir ahvolga tushib qoldilar.

23 mayda inglizlar Kobulni qattiq bombardimon qildilar. Aviatsiyaning harakati grajdanlar o'rtasida biroz sarosimalik tug'dirdi, ammo general Nodirxon xat yuborib, afg'on qo'shinlarinivg muvaffaqiyatlari to'g'risida xabar berdi va “Kobulni havodan sal bombardimon qilinishini va Arkdagi bir nechta otning bomba ostida qolib o'lishi shohni va saroyini beorlarcha sulh so'rash darajasigacha qo'rqitib yubormasligi kerak”, deb yozdi.¹

Oradan ko'p o'tmay sulh tuzish to'g'risida muzokaralar boshlandi. Ingliz qo'mondonligi tomonidan taklif etilgan yarash shartlarining to'rtinch moddasi ayniqsa batafsil ishlab chiqilgan edi. Bu modda inglizlarning sarosimaga tushib qolganini yaqqol ko'rsatib turar edi. “Siz,—deyilgan edi bu moddada,— Dyurand liniyasining o'zingiz tomonidagi qabilalaringizga ham, shuningdek bizning tomonimizdagi qo'shiningz kirib borgan qabilalarga ham, sizning agentlaringiz yoki varaqalaringiz ta'siri ostida qo'zg'olgan qabilalarga ham siz Hindiston hukumatidan harbiy harakatlarni to'xtatishni so'raganingizni va ularning ingliz hukumatiga qarshi agressiv harakatlarini endi ma'qullamasligingizni ma'lum qilib, tezda qat'iy talab bilan xat yuborishingiz kerak. Agar ular shunday harakatlarni yana boshlasalar, bu harakatlar bilan o'zlariga o'zlari balo orttirib, oladilar va ular bizdan yordam ololmaydilar, shuningdek Afg'onistonda ularga joy va boshpana berilmaydi, ular u yerga borib qolgan taqdarda haydab chiqariladi”.²

Yuqorida keltirilgan sulh shartlari ingliz generallari ko'zi oldida birinchi ingliz-afg'on urushi sharpasi turgan to'g'risida ochiq-oydin gapiradi. Usha urushda bosqinchilarga qarshi otlangan mard afg'on jangchilari bosqinchilar armiyasini butunlay tor-mor qilgan edilar.

Inglizlar o'z harbiy tarixlaridagi sharmandalik sahifalarni eslab, yon tomonida minglarcha partizanlarni to'plagan general Nodirxonning ilg'or gruppasi

¹ Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в.: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990

² Фридам А. Реформы в Афганистане (1919-1939 гг.): этапы, достижения, противоречия. М., 2001. С.69-72

o'z harakatini muvaffaqiyatli ravishda kengaytirayotgan chegara rayonidan ajralib qolishga jur'at eta olmadilar.

“Biz tomonimizdan topilgan yangi hujjatlarga muvofiq, inglizlar sulh to'g'risida muzokaralar olib borish bilan birga, orqadan zarba berishga tayyorlik ko'rib, afg'on bosh qo'mondonligining hushyorligini bo'shashtirishga harakat qildilar. Britan qo'shinlarini kavkaz ortidan va Eron Ozarbayjonidan Kaspiy dengizi orqali va so'ngra Kaspiy temir yo'li bo'ylab oqgvardiyachilar tomonidan bosib olingan Kushka qo'rg'oniga ko'chirish ko'zda tutilgan edi. Inglizlar Afg'onistonning markaziy oblastiga shimoli-g'arbdan hujum boshlab, Kushkadan Hirot ustiga to'satdan tashlanishni mo'ljallagan edilar¹.

Lekin bu rejalar amalga oshmay qoldi. 1919 yilning bahorida Orenburg “tiqini” vaqtinchalik tugatilgach, ruslar Britaniya imperializmiga qarshi kurash olib borayotgan Turkiston xalqlariga yordam berish uchun tadbirlar belgilagan edi. 14 aprelda ruslarning tashabbusi bo'yicha Mudofaa Sovetining quyidagi qarori qabul qilingan edi: “Respublika Revolyutsion Harbiy Sovetiga Turkiston harbiy tashkilotlariga tezda va boshqalarga topshirilmagan holda: ularning talablarini imkoniyat boricha qondirish topshirilsin. „

Bu yordam Turkiston qismlariga kaspiy orti frontida ingliz interventlarini tormor etish imkonini berdi. Polkovnik Todd bu muvaffaqiyatsizlikni eslab, ingliz qismlari kaspiy ortidan Eronga yashirin ravishda qochishga majbur bo'lgan edilar, deb yozgan edi. Oqgvardiyachi malaylar o'z holiga tashlab qo'yildi va ular 20-mayda Bayramali yaqinida tormor etildi. 23-mayda Qizil Armiya Kushkaga olib boruvchi temir yo'lni egallab, Marvni ozod qildi. Shimoli-G'arbiy Afg'oniston tepasida turgan xavf tugatildi. Kushka qo'rg'oniga sovet gornizoni keldi. Endi Kushka Afg'onistonning “Haqiqiy” do'sti qo'lida edi.

Shunisi xarakterliki, bu voqeadan keyin inglizlar yarash to'g'risidagi muzokaralarni ortiq cho'zmadilar.

¹ Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990. С. 187-189.

Afg'onistondagi ingliz qo'shinlari boshqo'mondoni general Charl'z Monro shoshilinch sulh tuzilishi sabablarini parlamentga tushintirib, konfidensial instruksiyada ustalik bilan aytilgan "Afg'onistonga bolsheviklar tomonidan o'qdorilar yuborishga hech bir yo'l qo'yilmasin" degan dalilni keltirdi¹.

Sulh tuzilgandan keyin muzokaralar boshlandi, u 1919. yilning 8 avgustida dastlabki ingliz-afg'on shartnomasini imzolash bilan tugallandi. Afg'onistonning mustaqilligini tan olish, ingliz subsidiyasini (yordamga beriladigan pulni) bekor qilish, Hindiston territoriyasi orqali Afg'onistonga qurol-yaroq yoki harbiy materiallar keltirishni taqiqlash bu shartnomaning asosiy qoidalari edi

¹ Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в.: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990 va General Staff Branch, Army Headquarters India (2004) [1926]. The Third Afghan War, 1919: Official Account. Uckfield, East Sussex: Naval & Military Press. OCLC 63665705

2.2. Afg'onistonning mustaqillikka erishishida

tashqi omillarning roli

Afg'on xalqi mustaqilligini qo'lga kiritishda bir qator omillar va vaziyatlar sabab bo'lgan. Bularning barchasi kutilmagan bir sharoitda yuzaga keldi. Bundan esa amir Omonullaxon ustalik bilan foydalandi. Ayniqsa bu davrdagi tashqi omil ayniqsa kuchliroq sabab bo'ldi.

1918 yilning yozida general Mallison qo'mondonligi ostidagi ingliz qo'shinlari Eron Xurosonidan Turkiston territoriyasiga bostirib kirdilar, eserlar va mensheviklarning yordamida Kaspiy ortini bosib oldilar.

Kaspiy ortining ingliz mustamlakachilari tomonidan bosib olinishi faqat Sovet O'rta Osiyosi xalqlariga emas, shuningdek Afg'oniston xalqlariga ham xavf solar edi. Interventlar oqgvardiyachilar bilan birgalikda Afg'onistonning Hirot tomonidagi chegaralari yaqinida joylashgan Qushkani bosib olishga muvaffaq bo'ldilar.

Oqgvardiyachilar O'rta Osiyoning sharqida Pomirni bosib oldilar va Afg'onistonning Vahon koridori orqali Chitraldagi ingliz siyosiy agenti bilan bevosita aloqa o'rnatishga harakat qildilar. Shunday qilib, Afg'oniston iskanja ichiga tushib qoldi. Inglizlarning mustamlaka mulklari o'rtasida qolgan edi.

Afg'onistonning hamma xalqlari zo'r xavf ostida qoldilar. Ingliz bosqinchilarining Kaspiy ortiga hujum qilib, kirgani to'g'risida gapirilib shunday deyilgan edi: "Bu la'nati dushmanlarning yirtqichlarcha ishtahasi Hindistonning o'zi bilan kifoyalanmaydi, ular Eronda, Kaspiy ortida va bizda o'z hokimiyatlarini o'rnatishga harakat qilmoqdalar... Shuning uchun bizning muqaddas burchimiz Vatanimizni manfur dushmandan himoya qilishga o'tlanishdir"¹.

Ruslar ham inglizlarga bo'sh kelmagan holda Kaspiy orti frontida ingliz bosqinchilariga va ularning malaylariga qarshi kurashda qahramonona kurash olib bordilar, ularga ketma-ket zarba berdilar.

¹ Robson, Brian (2007). Crisis on the Frontier: The Third Afghan War and the Campaign in Waziristan 1919–1920. The History Press. ISBN 1-86227-403-7. P.67-68

Ingliz qo'shinlarining Kaspiy orti frontidagi mag'lubiyati faqat mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan mag'lubiyat emas edi. U xalqaro siyosatning muhim faktorlaridan biri bo'lib, agar xalq ularga qarshi yakdillik bilan oyoqqa tursa, ingliz bosqinchilari qo'shinlari tor-mor etilishini Sharq xalqlariga namoyish qildi. Britan imperialistlari maqtangan qurolyaroq va harbiy texnika ustunligi mazlum xalqlarning g'alabaga bo'lgan mustahkam irodasi oldida ip yecholmay qoldi.

Bu shart-sharoitlarning hammasi O'rta Sharqdagi keng xalq ommasini harakatga keltirdi. Bu davrda Afg'onistonda sharoit ayniqsa keskin tus oldi. Erksevar afg'on xalqi o'z vatanini ingliz mustamlakachilari oyoq osti qilishiga yo'l qo'ymadi. Afg'on tarixchisi Iqbol Alishoh Habibulloxon rejimini ta'riflab, "Omonulla fojeasi" kitobida shularni yozgan edi: "Chin haqiqat shulardan iborat edi: Habibullo Hindiston imeriyasining pul yordami oladigan vassali edi. Bu hol Afg'oniston millatchilarini g'oyatda g'azablantirdi, albatta. Lekin Habibulloxon o'ziga nisbatan bo'lgan kichik norozilikni ham bostirish uchun yetarli kuchga ega edi". Habibulloning saroyiga imzosiz yuzlab xatlar kela boshladi, bu xatlarda amir istibdoddan voz kechishga, suveren hokim sifatida o'z mustaqilligini tiklashga chaqirilgan edi.

Habibulloxonning va uning inglizlarga qaram holdagi siyosati keng xalq ommasi o'rtasida norozilikka sabab bo'ldi.

1919 yilning fevralida tugun echildi. Ov paytida amir Habibullo o'ldirildi va hokimiyat tepasiga uning o'rtancha o'g'li yosh afg'onliklar harakati bilan yaqindan aloqada bo'lgan Omonullaxon o'tirdi. U Afg'onistonni mustaqil davlatga aylantirishga erishish zarurligi to'g'risida gapirgani uchun xalq ommasi tomonidan qo'llab quvvatlandi. "Omonulla fojiasi" kitobida yangi amirning dastlabki ishlari to'g'risida quyidagicha hikoya qilinadi: "Afg'oniston uning boshchiligida tashqi siyosatda ham, ichki siyosatda ham mustaqil bo'lishini va erkinlikdan foydalanishi kerakligini ma'lum qilib, bu bilan Afg'onistonning tashqi siyosatiga Angliyaning aralashishiga va nazoratiga kelguvsida yo'l qo'ymasligiga ishora qildi. Uning otasi bunday ishlarga yo'l qo'ygan edi. Omonullaxon bu bilan afg'onlarning zo'r xayrixohligiga sabab bo'ldi, chunki inglizlarning Afg'onistonning tashqi siyosati

ustidan qilgan nazorati hamma afg'onlarni g'oyatda g'azablantirib kelar edi. Bu hol o'ldirilgan amir Habibulloxonning ommalashmasligida katta rol o'ynar edi"¹.

1919 yilning 3 martida yangi afg'on hukumati Hindistonning viste-koroli Lord Chelmsfordga maktub bilan murojaat qildi. Afg'oniston hukumati o'z xatida sobiq huquqa teng bo'lmagan shartnomalarni bekor qilganini ma'lum qildi va shartlashuvchi har ikki mamlakatning mustaqilligini o'zaro tan olishga asoslangan munosabatlar to'g'risida yangi shartnoma tuzishga tayyorligini bildirdi.

Yaqindagina Sovet Turkistoniga ketgan va u yerdan Moskvaga, keyinchalik Evropaga o'tishi kerak bo'lgan Favqulodda elchilar Evropa, Osiyo va Amerika mamlakatlariga Afg'onistonning mustaqil deb e'lon qilinganini ma'lum qilishi kerak edi.

Imperialistik Angliya Afg'onistonga o'z Hindiston mustamlakasining qo'shimchasi sifatida qarar edi va o'zining mustamlakachilik hukmronligidan tushib qolishini istamas edi. Sharq mamlakatlariga nisbatan Angliyaga xos takabburlik bilan Hindiston viste-koroli afg'on hukumati xatiga javob bermadi. Buning o'rniga Afg'oniston chegaralarida Afg'onistonga qarshi yangi bosqinchilik urushi boshlash maqsadida ingliz qo'shinlarini to'play boshladilar.

Afg'oniston hukumati mamlakat oldida turgan xavfning oldini olib, inglizlarga qarshi qurolli zarba barishni uyushtirishga tayyorlik ko'ra boshladi. Amir Omonullaxon chet el qo'shinlari hujumlarining oldini olish va o'z chegaralarini mustahkamlash uchun quyidagi rayonlarda ma'lum sonni tashkil etgan soldatlardan iborat qo'shinlarga uchta qo'mondon belgiladi. Solih Muhammadxon — Jalolobodga, Muhammad Nodirxon — Xost va Argunga, Sardor Abdul Qud-duqxonni—Qandahorga qo'mondon qilib yubordi².

Shunday tahlikali vaziyatda afg'on xalqining mustaqilligi tashqi davlatlar tamonidan tan olingan taqdirda inglizlarning harbiy harakati oz miqdorda to'xtar edi. Ruslar bu vaziyatdan unumli foydalandilar ham Sovet hukumati Afg'onistonning mustaqilligini birinch" bo'lib tan oldi va unga do'stona qo'lini

¹ Afg'on tarixchisi Iqbol Alishoh "Omonulla fojeasi". C. 65-69.

² Имомов Ш. История общественной мысли Афганистана во второй половине XIX – первой половине XX в. М.- Душанбе, 200119 С. 79-84

cho'zdi va ular o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatila boshladi. Sovet hukumatining bu bir nayranggi edi. Bu bilan inglizlarning ta'sir doirasini susaytirishni ko'zlagan edi. Bu vaziyatda afg'on hukumatiga ijobiy tomonlar yuzaga keldi va o'z siyosiy mustaqilligiga qay darajada ega bo'lib oldi.

Iyun o'rtalarida Turkiston respublikasi missiyasi Toshkentdan Afg'onistonga jo'nab ketdi va 1919 yilning iyulida Kobilga etib keldi. Bu missiyani amir Omonullaxon kabul qilib olgan edi.

Sovet missiyasining Afg'onistonga yuborilishi va uning u yerga etib borishi afg'on-sovet yaqinlashishiga o'z agenturasi yordamida turli yo'llar bilan to'sqinlik qilishga harakat qilgan ingliz mustamlakachilarini qattiq g'azablantirdi.

Bu hujjat va shunga o'xshash materiallar inglizlarning sovet-afg'on munosabatlarini yomonlashtirishga harakat qilib, Afg'onistonning reakstion millatchi doiralarini sovet mamlakatining chegara territoriyasini bosib olishga undagan ishlarini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan Mallison o'z agentlarining ig'volari natijasida "afg'onlarning ishtahasi ochila boshlaganini, va ular faqat Pandin oblastinigina emas, shuningdek deyarli Marvgacha bo'lgan hamma joylarni talab qilganlarini, bundan tashqari, Hirotdan Amudaryogacha bo'lgan chegaralarni to'g'rilashni, shuningdek kelgusida Janubiy Buxorodan territoriya berilishini so'raganliklarini" yozgan edi.¹ Shunday qilib, afg'on xalqining ozodlik uchun olib borgan kurashi ingliz imperyalistlarini Afg'onistonning mustaqilligini tan olishga majbur etdi.

Dastlabki sulh shartnomasi imzolangandan keyin ingliz delegatsiyasining boshlig'i Gamilton Grant afg'on delegatsiyasi boshlig'iga nota topshirdi, unda quyidagilar aytilgan edi: "Bu shartnoma va Afg'onistonga berilgan nota bilan o'z ichki ishlarini ham, shuningdek tashqi ishlarini ham erkin va mustaqil ravishda hal etishning rasmiy huquqi beriladi. Bundan tashqari, bu urush bilan qadimgi, hamma shartnomalar bekor qilinadi".

¹ Имомов Ш. История общественной мысли Афганистана во второй половине XIX – первой половине XX в. М.- Душанбе, 2001 va Loyn, David (2009). Butcher & Bolt: Two Hundred Years of Foreign Engagement in Afghanistan. London: Windmill Books. ISBN 978-0-09-952263-8.

Inglizlarning orqa tomonida — Hindistonda milliy-ozodlik harakatining kuchayishi Afg'onistonning urushdan muvaffaqiyatli chiqishida muhim rolo'ynadi. Hindistondagi bu harakat oktyabr to'ntarishi ta'siri ostida keng rivojlangan edi.

“Afg'on urushi,— deb yozgan edi,— Hindistonning vitse-koroli,— Panjobda va boshqa joylarda tartib o'rnatish uchun ko'rgan maxsus tadbirlarimiz tufayli, bizning harbiy apparatimiz ma'lum darajada kuchsizlanib qolgan davrda boshlanib ketdi. Biz butun Hindistonga yoyilib ketishi mumkin bo'lgan voqealar bilan aloqada bo'lganimizni unutmaslik kerak. Qo'zg'olon temir yo'lga ancha zarar yetkazdi, va Shimoliy Hindistonning butun temir yo'l xizmati ma'lum darajada ishdan chiqarildi. Afg'on voqealari krizisga duchor bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan tasodif, chegaradagi militsiyalarimizning xoinligi, Peshovarning o'zida qo'zg'olon chiqish xavfi — bularning hammasi tayyorgarligimizni tugatish uchun kerak bo'lgan vaqtdan bizni mahrum etdi”¹.

Hindistondagi milliy-ozodlik harakatining Afg'oniston uchun ahamiyati to'g'risida shularni yozgan edi: “O'z-o'zidan ma'lum va ravshanki, Hindistondagi bu milliy ozodlik harakati shu darajada yordam berdiki, natijada inglizlar o'z katta kuchlarini Afg'oniston va Hindiston chegaralariga yubora olmay qoldilar”.

Ayni vaqtda afg'on xalqining mustaqillik uchun olib borgan ozodlik urushi Hindistonning shimoli-g'arbiy viloyatlaridagi afg'on qabilalarining Afg'onistonga yordam berish shiori ostida qo'zg'olon ko'tarishiga olib keldi. 1919 yilning may oyi o'rtalarida 200 mingga yaqin jangchi to'play olgan bu afg'on qabilalarining qo'zg'oloni Haybar ko'lidan tortib to Belujistongacha bo'lgan Hindistonning butun chegara xududlariga tarqaldi. Qo'zg'olon ko'targan qabilalar ingliz qo'mondonligini afg'on chegarasiga yordamchi kuchlar yuborish va Afg'oniston territoriyasidagi ingliz qo'shinlariga madad berish imkoniyatidan mahrum etib, uning kuchlarini siqib qo'ydilar. Deyarli hamma ingliz-hind armiyasi aloqa yo'llarini mudofaa qilish bilan band edi va Afg'onistonning o'z teri ritoriyasiga bostirib kira olmadi.

¹ Коргун В. Г. Формирование и эволюция политической системы современного Афганистана, 1919-1999 гг.: Дис. ... канд. ист. наук. М, 2000. С. 200-203.

Hindistonning shimoli-g'arbiy chegara xududida yashovchi afg'on qabilalarining inglizlarga qarshi ko'targan qo'zg'olonining ahamiyatini xarakterlab kuyidagilarni yozgan edi: “Dyurand liniyasining narigi tomonida turgan pushtu qabilalari to'g'risida shuni aytish kerakki, afg'on xalqi bilan yagona qardoshlik ipi bilan bog'langan va unga xayrixoh bo'lgan bu qabilalarning mazkur milliy-ozodlik kurashida katta yordam ko'rsatganiga hech shak-shubha yo'q. Inglizlar tomonidan turib urushayotgan bu qabilalar o'z qurollari bilan bizga taslim bo'ldilar va bu bilan afg'on xalqiga yordam berdilar”¹.

Lekin sovet-afg'on do'stligi urushdan muvaffaqiyatli chiqishda asosiy hal qiluvchi shart-sharoit bo'ldi. Britaniya vasiyligidan chiqqan Afg'oniston o'zining shimoldagi qo'shnisi xamma xalqlarning ozodligi va mustaqilligi huquqini e'lon qilgan va bu huquqni himoya qilayotgan Sovet Rossiyasi bilan do'stona munosabatlar boshlagan edi

Afg'on xalqi Afg'onistonni o'z mustamlakalariga aylantirishga harakat qilgan ingliz imperialistlariga qarshi shiddatli kurashda o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritdi. Qahramon afg'on xalqi bu kurashda uch marta g'olib bo'lib chiqdi va 1919 yilda o'z mustaqilligi va davlat tuzumining mustahkam poydevoriga asos soldi. Sovet davlatlarining O'rta Osiyoda interventlarini tor-mor etishi Afg'onistonning o'z mustaqilliginn qo'lga kiritishda muhim rol o'ynadi.

¹ Коргун В. Г. Формирование и эволюция политической системы современного Афганистана, 1919-1999 гг.: Дис. ... канд. ист. наук. М, 2000. С. 214-215.

2.3. Afg'onistonning siyosiy mustaqillikka erishgandan so'ng ingliz-rus raqobatchiligi

Afg'oniston siyosiy mustaqillikka erishgandan so'ng ingliz-sovet muzokaralari davom etdi va garchi Kronshtadt isyoni bostirilgan bo'lmasa ham, muvaffaqiyatli tugallandi. "Aftidan,—deb yozgan edi General Staff Branch,—ingliz hukumati Sovet hokimiyatining yetarli mustahkamlanganidan o'sha davridayoq yaxshi xabardor bo'lsa kerak, Kronshtadtni Sovetlarga qarshi ko'tarish uchun urinishlari ingliz rahbar siyosatchilar tomonidan yetarli inobatga olinmagan edi"¹.

Ingliz hukumati shartnomaning dastlabki loyihasiga sovet respublikasi uchun nomaqbul bo'lgan bir qancha talablarni kiritdi. Bundan tashqari, "Rossiya Angliyaning Hindiston, Afg'oniston, Eron, Kichik Osiyo va hatto Kavkazdagi tashkilot manfaatlariga qarshi dushmanlik siyosati va rasmiy targ'ibot olib bormasin"² degan talablar kiritilgan edi. Muzokaralar oxiriga kelib ingliz hukumati Kavkaz, Eron va Kichik Osiyoni bu ro'yxatdan chiqarib tashlashga rozi bo'ldi.

1921 yil 16 martda ingliz-sovet savdo shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga muvofiq, har ikki mamlakat diplomatik imtiyozlarga ega bo'lgan o'z savdo agentlarini yubordi. Angliya va Sovet Rossiyasi bir-biriga qarshi turli dushmanchilik harakatlaridan va targ'ibotdan saqlanish majburiyatini oldi. "Angliya, — deb yozgan edi General Staff Branch, boshqa mamlakatlarning Sovet Rossiyasi manfaatlariga dushman bo'lgan siyosatini targ'ib qilmaslikdan va uni qo'llab quvvatlamaslikdan tashqari, hokimiyatni bosib olishni va Rossiya hukumati yoki uning qisman roliga qarshi bo'lgan tashkilotlar va gruppalarni ham qo'llab-quvvatlamaslik majburiyatini oldi"³, shartnomaga maxsus deklarasiya ilova qilindi. Bu deklarasiyada qayd qilindiki, "tomonlardan biri yoki uning fuqarolarining ikkinchi tomonga nisbatan mulki huquq, yoki bo'lmasa ikki tomon

¹ General Staff Branch, Army Headquarters India (2004) [1926]. The Third Afghan War, 1919: Official Account. Uckfield, East Sussex: Naval & Military Press. OCLC 63665705. P.98-100.

² Barthorp, Michael (2002) [1982]. Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8. P.102-105.

³ General Staff Branch, Army Headquarters India (2004) [1926]. The Third Afghan War, 1919: Official Account. Uckfield, East Sussex: Naval & Military Press. OCLC 63665705. P. 112-115.

birontasining amaldagi yoki ilgarigi hukumatlari tomonidan qabul qilingan majburiyati bo'yicha bo'lgan da'volari shartnomaning kirish qismida ko'zda tutilgan rasmiy shartnomada haqqoniy ravishda hal qilinadi"¹.

Qobilda Ruslarning Favqulodda vakili Surist bilan afg'on hukumati o'rtasida olib borilgan sovet-afg'on muzokaralari natijasida 1920 yil 13 sentyabrda do'stlik to'g'risida dastlabki sovet-afg'on shartnomasi tuzildi va qabul qilindi. Bu shartnoma Moskvada ratifikatsiya qilinishi kerak edi.

Shuning bilan bir vaqtning o'zida Afg'oniston bilan unga, bevosita chegaradosh bo'lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatila boshlandi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi 1920 yil 20 sentyabrda afg'on amiriga maxsus nota orqali murojaat qilib, Buxoroda amirning taxtdan tushirilgani va Sovet hokimiyati o'rnatilganini Afg'oniston hukumatiga ma'lum qildi. Bu notada Buxoro bilan Afg'oniston o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish va juda yaqin vaqtlar ichida o'zaro muxtor vakillar yuborishni taklif etdi. 1921 yil 17 dekabrda afg'on hukumati BXSR bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilishiga rozilik bildirdi va bir vaqtning o'zida Abdulhodixon boshchiligidagi Favqulodda elchilarni Buxoroga yubordi.

Do'stlik to'g'risida dastlabki sovet-afg'on shartnomasining imzolanishi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi Afg'onistonning xalqaro mavqeyini mustahkamladi. Ammo Afg'onistonga o'zining bulg'usi mustamlakasi va Sovet O'rta Osiyosiga yurishi uchun plastdarm sifatida qarab kelgan ingliz imperialistlari bu holat bilan kelisha olmas edilar va shuning uchun: ular sovet-afg'on munosabatlarini keskinlashtirishga qaratilgan hamma choralarni ko'rdilar.

1921 yil yanvar oyi boshlarida Genri Dobbs boshchiligidagi Britan missiyasi Kobilga keldi, u rus-afg'on shartnomasini buzish uchun keskin qadam tashladi,

Shuningdek "Kobul kelishuvi" chaqirilgan. Chunki bu og'ir yetti oy muzokaralardan so'ng afg'on deligatsiyasi rahbari Mahmud Tarziy va Britaniya

¹ General Staff Branch, Army Headquarters India (2004) [1926]. The Third Afghan War, 1919: Official Account. Uckfield, East Sussex: Naval & Military Press. OCLC 63665705. P. 112-115.

elchisi Genri R.C.Dobbs tomonidan Kobulda muhokama va muzokaralar olib borilgan va imzolangan. Shartnoma Ravalpindi va Mussorie konferensiyasidagi muzokaralar va uchinchi ingliz-afg'on urushida "do'stlik va savdo sotiq munosabatlari ta'minlangan. Muzokaralar to'rt bosqichda davom etgan edi. 1921-yil 20-yanvar va 9-aprel birinchi yig'ilish davomida Britaniya Afg'onistonning janubiy sharqidan Rossiyaning rasmiy konsullarini chiqarishini xohlagan vaqtda afg'on Amiri hududiy ikki tomonlama shartnomada omadsiz turib olgandi.

1921-yil 9-apreldan iyul o'rtasidagi ikkinchi yig'ilishda Britaniya, Rossiya harbiylar ig'vo qilib fitna chiqarmasligidan kafolatlay olgach, qurollar va yordamga berilgan to'rt million rupeya uchun almashtirishda Rossiya bilan qayta o'rnatilgan diplomatik munosabatlarni barbod qilishni Afg'onistondan so'ragan edi. Iyul o'rtasida Italiya hukumatiga ma'lumot bergan. "Bu Afg'onlar biz bilan qarindoshchilik munosabatlarini qabul qilishdan vos kechgan edi", Britaniyaning siyosiy ta'siri ustun kelishi va yuqori o'rinda bo'lishini qabul qilishi to'g'risidagi bir bitimni to'xtatishi haqida edi. 1921-yilgi Rossiya Afg'on kelishuvini tasdig'ini Afg'oniston e'lon qilgandan so'ng bir maxsus shartnoma amalga oshmaydigan bo'ldi. 1921-yil 18-sentyabrdan 8-dekabrgacha muzokaralarning sahnasi hamda to'rtinчисida bo'lib o'tgandi. 1921-yil 22-noyabrda Kobulda haqiqiy ikki tomonlama shartnoma imzolangan vaqtda Britaniya messiyasida ikki marta Hindistonga qaytishga taraddud qiladi. 1922-yil 6-fevralda tasdiqlar almashtirilgan edi.¹

Ikki hukumat kelishuvida ichki va tashqi haqiqiy mustaqillikdan tashqari qarash bilan har biri bir-biriga nisbatan ichonch va munosabat aks etgandi. Afg'oniston Haybar g'arbiy chegaralarini qabul qilishini takidlagan edi. Qabul va Londonda diplomatik vakolatxonalar ochiladiga bo'ldi va konsulxonalar afg'on va Hindiston shaharlarining har birida ochilgandi va Hindiston orqali qurol aslahalar va muhim qurollarni o'tkazishga ijozat bergan edi. Afg'onistonga tranzitda yuklar uchun majburiyatda ayblaydigan bo'ldi va har bir partiya chegaralarda asosiy

¹ Бойко В. С. Власть и оппозиция Афганистане: особенности политической борьбы в 1919-1953 гг. М. Барнаул, 2010.

harbiy harakatlarning boshqasi ma'lumot berishga rozi bo'lgan. Ikki davlatning vakillari 1932-yil iyunda imzolangan shartnoma matnida savdo sotiq yig'ilishining yakunlash muhokamasiga yaqin kelajakda ko'rishadigan bo'ldi va bundan so'ng o'z loyixasini qarshi qo'ydi. Bu loyiha asosan shulardan iborat edi:

1) Rossiya bilan savdo munosabatlarini saqlash, ya'ni 1920 yil 13 sentyabrdagi bitimni amalda bekor qilish 2) afg'onlarni chegara rayonlarda yashovchi qabilalarni o'z himoyasiga olishdan voz kechdirish, chunki bu qabilalar diniy va etnografik jihatdan afg'onlarga qon-qardosh bo'lib, ingliz-hind hokimiyatlariga qarshi muttasil qo'zg'olon holatida edi"¹.

Inglizlar Afg'oniston bilan uning shimoldagi qo'shnilari o'rtasidagi munosabatni keskinlashtirish uchun pora berdilar.²

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Kobildagi elchisining hukumati "Afg'onistonning shimoldagi qushinlari bilan tuzilgan shartnomaning hamma moddalari bilan inglizlarni tanishtirsa va sovet - konsulini Jalolobodga qo'ymasa", ular afg'on hukumatiga ko'p miqdorda qurol-yaroq, pulemyotlar va hatto samaliyotlar va'da qilganligini BXSР Tashqi ishlar Nozirligiga ma'lum qildi"

Inglizlarning sovet-afg'on shartnomasining ratifikatsiya qilinishiga qarshi urinishlari barbod bo'ldi. U 1921- yil 28 fevralda bu shartnoma Moskvada ratifikatsiya qilindi Bu shartnomaga muvofiq Sovet Rossiyasi va Afg'oniston birlarining mustaqil davlatlar ekanini yana e'tirof etdi , biror uchinchi davlat bilan ahdlashuvchi tomonlardan ikkoviga zarar yetkazuvchi harbiy yoki siyosiy bitim tuzmaslik majburiyatini oldi. Umumiy bitimga muvofiq ular konsulliklar ochdilar: sovet Rossiyasi Hirotda, Maymanada, Mozoru Sharifda, Qandahorda va G'aznada; Afg'oniston esa Toshkentda, Petrogradda, Qozonda, Samarqandda, Marvda va Krasnovodskda. Rus hukmati Afg'onistonga o'z territoriyasida hukumat yuklarini haq olmay va erkin olib o'tish huquqini berdi va unga moddiy hamda madaniy yordam ko'rsatishni o'z ustiga oldi. Har ikki mamlakat "boshqarishning qanday

¹ Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990. С.189-196

² Usha asar, 189-190.

shaklidan qat'iy nazar Buxoro bilan Xivaning mustakilligi va ozodligini e'tirof etishga kelishdi"¹.

Ingliz hukumati yangi antisovet yurishi tayyorlashga qatnashib, 1921 yildagi ingliz-sovet shartnomasiga qarshi o'laroq, Sovet Rossiyasiga qo'shni bo'lgan chet el Sharq mamlakatlariga o'z agentlarini ko'plab yubora boshladi. U oltin yordami va quruq va'dalar bilan bu mamlakatlar va ruslar o'rtasidagi munosabatni keskinlashtirishga va kelgusida ularning Sovet davlatiga nisbatan mustaqil siyosat olib borishlariga yo'l qo'ymaslikka harakat qildi.

1921 yil 7 sentyabrda Angliya tashqi ishlar ministri lord Kerzon Sovet hukumatiga nota yuborib, uni Turkiyada, Eronda, Afg'oniston va Hindistonda Britaniyaga qarshi targ'ibot olib borishda aybladi. Kerzon 1921 yilda tuzilgan sovet-afg'on shartnomasiga ham norozilik bildirdi. Ma'lumki, bu shartnomada mustaqil Afg'onistonga pul va moddiy yordam berish ko'zda tutilgan edi. Bunda Kerzon Sovet hukumati tomonidan bekor qilingan 1907 yildagi ingliz-rus bitimiga asoslandi. Bu bitimda Rossiya Afg'onistonning ingliz ta'sir doirasiga kirganini e'tirof etgan edi.

Ingliz hukumati sovet hukumatini dushmanlarcha propaganda tarqatmoqda deb ayblash bilan birga, sovet Rossiyasining ichki ishlariga aralashdi, uning territoriyasidagi va chet davlatlardagi kontir revolyustion kuchlarni qo'llab-quvvatladi, bu bilan u 1921 yildagi ingliz-sovet shartnomasini buzdi. 1921 yil 17 iyundayoq rus hukumati Angliyaning ingliz-sovet shartnomasini buzishi munosabati bilan Kerzonga nota yuborgan edi. Bu notada rus hukumati ingliz hukumatining ba'zi chet mamlakatlarda boshpana topgan oqgvardiyachilarga va boshqa kontr revolyustion tashkilotlarga pul yordami berayotganiga norozilik bildirgan edi.²

Rus hukumati 1921 yil 27 sentyabrdagi o'z javob notasida Kerzon notasiga keskin zarba berdi. Rus hukumati yolg'on aybni rad qilib, Sovet hukumatini Kommunistik internastional bilan bir ma'no deb tushunilishiga qarshi, Sovet

¹. محمد ابراهيم عطايي "تاريخ معاصر افغانستان" كابل - افغانستان، 2010، ص، 259.

². محمد ابراهيم عطايي "تاريخ معاصر افغانستان" كابل - افغانستان، 2010، ص، 262.

Rossiyasining sharq mamlakatlari bilan munosabatlari yuzasidan ingliz interpretastiyasiga qarshi norozilik bildirib, o'z pozistiyasida mahkam turdi.

“Barcha xalqlarning o'z taqdirini o'zlari belgilash Huquqi prinstipiga sodiq bo'lgan Sovet hukumati va uning vakillari, —deyiladi sovet notasida,— Sharq davlatlarining mustaqilligini juda hurmatlaydi, chor hukumati tomonidan kuch bilan majburiy ravishda qo'lga qiritgan barcha imtiyozdan hamda yonberishlardan voz kechadi va hatto revolyustiyagacha bo'lgan Rossiyaning qilgan adolatsizligini tuzatish yo'lida ba'zi bir moddiy va pul yordami ko'rsatadi. Rossiya hukumatiga shu narsa noaniqki, Afg'onistonga shartnoma asosida ochiqdan-ochiq ko'rsatilgan yordamni (chunonchi bu shartnoma bilan janob Krasin Britaniya hukumatini tanishtirgan edi) qanday qilib Buyuk Britaniyaga qarshi qaratilgan dushmanlik akti deb tushunilishi mumkin”.

Ingliz hukumati Sovet Rossiyasiga yolg'on tuhmatlar qilib sovet-afg'on, va sovet-eron shartnomalarining tasdiqlanishiga qarshi harakat qildi.

“Glazgo Gerald” nomli ingliz gazetasining 1921 yil 7 aprel sonida ‘rus-eron va rus-afg'on shartnomalarining tuzilishi Sharqda bolshevistik propagandaning yanada kuchayishiga signal bo'lishi mumkin” deb yozilgan edi. “Hirotda, Qandahorda, G'aznada rus elchiliklarining ta'sis etilishi,— deb yozgan edi shu gazetaning o'zi,— Britaniyaning ta'siriga va obro'siga katta zarar etkazadi, afg'on hukumatining Moskvadan pul yordami olishi Hindistonning xavfsizligiga kuchli zarba beradi”¹.

Angliyaning Kobildagi Muxtor vakili Genri Dobbs, sovet-afg'on diplomatik munosabatlari buzulgan va sovet elchixonasi Kobildan chiqarib yuborilgan taqdirdagina ingliz hukumati Afg'onistonning mustaqilligini tan olishini afg'on hukumatiga ma'lum qildi².

Shuning bilan birga, Genri Dobbs, agar Afg'oniston sovet-afg'on shartnomasini bekor qilsa, sovet elchisini va Angliyaning o'zi uchun xavfli deb sanagan hamma shaxslarni Afg'onistondan chiqarib yuborsa, Sharqning musulmon

¹ Hughes, Basil (1992). History of the Royal Regiment of Artillery: Between the Wars 1919–39. London: Brassey's. ISBN 0-08-040984-9 14-16.

² Yuqoridagi asar.

mamlakatlarida sovetlarga qarshi tashviqotni kuchaytirsam va bundan, keyin boshqa mamlakatlar bilan Britaniya hukumati orqaligina muzokaralar olib borsa, uning hukumati Afg'onistonga 20 ming miltiq, 20 ta dala batareyasi, 20 ta pulemyot rotasi uchun qirol-yaroq sovg'a qilishi va har yili pul yordami berish majburiyati olishini ma'lum qildi Genri Dobbs Kobilda afg'on hukumati bilan muzokaralar olib borayotgan bir davrda, Yevropada sayohat qilib yurgan afg'on elchilari Londonga keldi. Angliyaning tashqi ishlar ministri lord Kerzon afg'on amirining ingliz quroliga yuborgan maktubini qabul qilmadi. Shuningdek, u Afg'oniston tashqi ishlar ministri tomonidan Kerzonniyg shaxsan o'ziga yuborilgan maktubni olishdan ham bosh tortdi.¹

U ingliz hukumati Afg'oniston bilan Hindistonning viste-qiroli orqali munosabatda bo'lishini va afg'on missiyasining qabul qilinishi ingliz-afg'on shartnomasining tasdiqlanishiga va Genri Dobbs Kobilda olib borayotgan muzokaralarga bog'liqligini aytdi. U bu bilan ingliz hukumatining Afg'onistonni mustaqil davlat deb hisoblamay, unga nisbatan qanday munosabatda ekanini isbot qildi. Hindiston viste-qiroli vositasi orqali Angliya bilan yashirincha muzokaralar olib borishdan bosh tortgan afg'on elchilarining boshlig'i Londondan tezda chiqib, Parijga keldi va sodir bo'lgan voqealarni o'z hukumatiga xabar qildi.

Ingliz podpolkovnigi Freyzer Taytler bu munosabat bilan shularni yozgan edi: "Turli millatlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida Yevropa bo'ylab sayohat qilib yurgan afg'on missiyasining Londonda lord Kerzon tomonidan sovuq kutib olinishi amirni shunday g'azablantirdiki, u Britaniya missiyasining boshlig'iga (Genri Dobbsga) haqoratli xat yubortirdi"². Ingliz hukumatining Afg'onistonga nisbatan tahqirona munosabatda bo'lishi Sovet tashqi siyosatining Angliya imperialistik siyosatidan butunlay farq qilishini yana bir marta ko'rsatdi va sovet-afg'on shartnomasining ratifikatsiya qilinishini tezlashtirdi.

"Amir Omonullaxon, deb xabar beriladi:" 1921 yil 7 avgustda keng vakolatlik majlisi chaqirdi. Har ikki loyihani — rus va ingliz loyihalarini 4 kun

¹ Hughes, Basil (1992). History of the Royal Regiment of Artillery: Between the Wars 1919–39. London: Brassey's. ISBN 0-08-040984-9 45-49.

² Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990 198-201.

davomida har tomonlama muhokama qilish natijasida 11 avgustda majlis ingliz taklifini rad qildi. 13 avgustda afg'on hukumati rus-afg'on shartnomasini ratifikatsiya qildi.

Shuni ham qayd qilib o'tish zarurki, birinchi jahon urushi natijasida Angliyaning iqtisodiy va siyosiy mavqeyi bo'shashib qolgan edi. Sharq mamlakatlarida va Hindistonning o'zida ham milliy-ozodlik harakatlari rivojlanib bormoqda edi. Bunday sharoitda Angliya amalda mustaqil davlat bo'lgan Afg'onistonga qarshi yangi urush ochishga botina olmas edi. "Urushdan charchagan va dam olishni talab qilgan Britaniyaliklar ming qilsa ham bo'sh hamyon bilan Kobilga yana bir marta borishga qodir emaslar, — deb yozgan edi ingliz generali Makmun Vaxolanki shunday ekan, eng yaxshi (Angliya uchun) tinchlikka erishish zarur edi. Darhaqiqat, obro' nihoyat past edi"¹.

Shuning uchun inglizlar sovet-afg'on shartnomasi ratifikatsiya qilingandan keyin o'zlarining dastlabki talablarini bo'shashtirishga majbur bo'ldilar, va 1921 yil 22 noyabrda Kobilga ingliz-afg'on sulh shartnomasi varianti imzolandi U Afg'onistonning mustaqilligini e'tirof etdi, London bilan Kobilga diplomatik vakillar yuborildi. Ammo afg'on hukumati inglizlarning talabi bo'yicha, Qandahor va G'aznada garchi Sovet-afg'on shartnomasida ko'zda tutilgan bo'lsa ham Sovet elchixonasini ochishga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oldiyu buning evaziga afg'on hukumati Angliyadan (agar bunday yuklar Hindiston uchun bevosita xavf tug'dirmasa) Afg'onistonga Hindiston orqali qurol-yarog' tashib keltirish huquqini oldi.

Butun 1923 yil davomida Angliyaniig sovet respublikalarini o'rab olish planida Afg'onistonga alohida ahamiyat berildi. Ingliz imperialistlari Afg'onistonni o'z ta'sirlariga o'tkazishga harakat qilar edilar.

Ingliz-hind armiyasining "Artur Vinstent" nomi ostida yashirinib yurgan eng tajribali shtab ofisterlaridan biri, Afg'onistonga qarshi yangi urushning strategik programmasini bayon etib, shularni ochiq-oydin yozgan edi: "Hujum qilish —

¹ Omissi, David E. (1990). Air Power and Colonial Control: The Royal Air Force, 1919–1939. New York: Manchester University Press. ISBN 0-7190-2960-0, p, 45-68.

mudofaaning eng yaxshi vositasidir. Agar biz boshdanoq dushman harakatining oldini olsak, u biz uchun xavfli bo'lmaydi. Biz boshdanoq Hindistondan imkon boricha uzoqroqda urush olib borishimiz kerak. Harbiy harakatlar boshlanib ketganda, biz chegaradosh mustaqil qabilalarga oldidan, orqadan va yondan xavf solib, ularni qurol-yaroq, pul va o'q-dorilar manbalaridan mahrum etib, ulardan ancha oldinda bo'lishimiz kerak".

Bu, kelgusi urushda ingliz hukumati ingliz-hind qo'shinini Hindistonning shimoli-g'arbiy chegara polosasini teritoriyasi orqali Afg'onistonning ichkarisiga va yana uzoqroqqa O'rta Osiyo tomoniga siljitadi degan gap edi. Shu maqsadda 1919-1923 yillarda ingliz qo'shinlari Hindistonning shimoli-g'arbiy chegarasi polosasidagi ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashni to'xtatmagan patan nomli afg'on qabilalariga qarshi shiddatli harbiy harakat olib bordilar. Ingliz qo'shinlari sonining ko'pligi va texnika tomonidan ustunligi tufayli, 1923 yilda bu qabilalarning qo'zg'olonini shafqatsiz ravishda bostirilgan edi.

"Ittihodi Mashriqi" nomli afg'on gazetasi "Xudo tomonidan berilgan bu mamlakat chegaralarida chet ellik yirtqichlarning qilgan vahshiyliklari va xunrezliklari" maqolasida chegaradagi afg'on qabilalarining jazolanishini tasvirlab, shularni yozgan edi: "Shuni ochiq aytish kerakki, biz bilan bir tilda gaplashuvchi, biz bilan hamfikr bo'lgan birodarlarimizga, ya'ni chegara polosasidagi afg'onlarga nisbatan inglizlarning hozirgi hamma xatti-harakatlari ham, shuningdek ularning o'tmishda qilgan xatti-harakatlari ham, harholda hammasidan oshib tushadi ularning zolimligi oldida Chingizxon va uning galasining jabr Zulmi ip yecholmay qoladi". Ingliz xavf kuchlari tomonidan afg'on qabilalari bombardimon qilinganini ta'kidlab, maqola Britan hukumatidan: "Sizga bolsheviklarni vahshiylekda ayblash hukuqini bergan stivilizastiyaning o'zi shu emasmi?"¹ deb istehzo bilan so'raydi.

Ingliz hukumati shimoli-garbiy chegara polosasidagi mustaqil qabilalar qo'zg'olonini bostirish bilan birga, u urushga tayyorlik ko'rish ishlarini ham olib bordi. 1923 yil davomida u yirik harbiy kuchlarini mustaqil qabilalar teritoriyalarida to'pladi, Haybar temir yo'lini kurib bitkazdi, aerodromlar qurdi.

¹ Yuqoridagi asar.

Ingliz hukumati Afg'oniston bo'sag'alarida harbiy strategik tomondan tayyorgarlik ishlarini o'tkazib, Afg'onistonda mustaqilligini xavf ostida qoldirishga urinib, afg'on-rus munosabatlarini buzishga harakat qildi. Afg'onistonning sobiq tashqi ishlar ministri va bu davlatning Parijdagi elchisi Mahmud Tarziy 1923 yildagi voqealarni xarakterlab "Maten" nomli fransuz gazetasining muxbiri bilan bulgan suhbatida shunday degan edi: "Biz Britaniya imperiyasi mamlakatimizni bosib olish uchun qadimdan qilib kelayotgan zo'rligining yangi bosqichida turibmiz. U mening mamlakatim ustidan yarim asrdan ko'proq hokim bo'lib turgani uchun, 1919 yilda bizning muaffaqiyatli qo'zg'olonimiz tufayli, bizni ekspluatatsiya qilish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolganiga aslo chidolmaydi. Buyuk Britaniya, biz undan tortib olgan hamma narsani qaytarib olish uchun, istagan vajni topishga tayyor"¹.

1923 yilda ingliz-sovet munosabatlari yomonlashishi bilan birga ingliz-afg'on munosabatlari ham og'irlashdi. 1923 yilning deyarli har bir oyida Afg'oniston bilan Angliya o'rtasida biror konflikt chiqib turdi.

1923 yilning aprelida ingliz-hind ma'murlari Germaniyadan Afg'onistonga harbiy mahsulotlar olib kelayotgan paroxodni Bombeyda ushladilar, va uni qaytib ketishga majbur etdilar. Bu bilan ular 1921 yildagi ingliz-afg'on shartnomasining bir moddasini buzdilar. Bu shartnomaga ko'ra, Afg'oniston Hindiston orqali qurol-yaroq olib o'tish huquqiga ega edi.

1923 yilning may oyida Britaniya hukumati ingliz fuqarolaridan olinadigan soliqlar miqdorini afg'on grajdanlaridan olinadigan soliqlar miqdori bilan barobarlashtirishni va ularga boshqa imtiyozlar berishni afg'on hukumatidan talab etdi. Ammo afg'on hukumati bu talablarni rad etdi va iyun oyida kelishmovchilik "status kvo" asosida tartibga solindi.

1923 yilning kuzida ingliz ma'murlari Afg'onistonning Italiyadan sotib olgan qurol-yaroqlarini Hindiston orqali olib o'tilishiga yana yo'l qo'ymadilar. Usha davrda mustaqil chegara polosasida xizmat etayotgan ikki ingliz afitsori

¹ Бойко В. С. Власть и оппозиция Афганистане: особенности политической борьбы в 1919-1953 гг. М. Барнаул, 2010. С.87-89.

patanlar tomonidan o'ldirilgan va ular Afg'oniston territoriyasiga yashiringan edilar. Dastlab Britan hukumati bu qotillarni ingliz ma'murlariga tutib berishii qat'iy turib talab etdi, keyinroq esa ularni qamash to'g'risidagi talab bilan kifoyalandi. Qotillar qamoqqa olindi, lekki ular 4- noyabrda Kobil qamoqxonasidan qochib ketdilar. Bu hol yangi ingliz-afg'on konfliktini keltirib chiqardi.

1923 yilning dekabrda ingliz hukumati Afg'onistonga ultimatum topshirdi. Unda qotillarni tutib berish yana talab qilingan edi. Shuning bilan birga unda "Ruslar bilap diplomatik munosabatlarni to'xtatish to'g'risidagi talab g'ayri rasmiy ravishda yana ilgari surildi".

Ingliz hukumatining ultimatumini Afg'oniston jamoatchiligi orasida keskin norozilik tug'dirdi. Afg'oniston hukumati ingliz afitserlarining qotillarini tutib berish to'g'risidagi talabini rad etib, "musulmonlarni tutib berish asosiy diniy qoidalariga xilofdir" deb ma'lum qildi.

Afg'onistonning Moskvadagi elchisi G'ulom Nabixon sovet-afg'on munosabatlarning buzilishi to'g'risida o'z hukumati topshiryg'iga muvafiq quyidagilarni aytdi: "Afg'oniston boshqa davlatlarning tazyiqi va istagi bilan o'z siyosatini o'zgartirish uchun katta talafotlar ko'rib o'z mustaqilligiga erishgan emas, albatta... Sovet Rossiyasi bilan munosabatning buzilishi to'g'risida so'z bo'lishi ham mumkin emas", chunki "Har ikkala mamlakat o'rtasidagi o'zaro manfaat va Do'stona munosabat ular o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga yo'l qo'ymaydi" va "boshqa davlatlarning aralashishi Sovet Rossiyasi bilan bizning o'rtamizdagi siyosatni o'zgartira olmaydi". Ultimatum afg'on hukumati tomonidan rad qilingan edi¹.

Angliya hukumatining ultimatumiga qarshi O'rta Osiyo mehnatkashlari ham kuchli norozilik bildirdilar. Ular Ruslarning hamma xalqlari bilan birgalikda Afg'oniston xalqlarini ingliz imperiazmi tajovuziga qarshi o'z mustaqilligi uchun kurashini qo'llab-quvvatlashlarini izhor qildilar.

¹ Лалетин Ю.П. Этнополитические процесс в истории Афганистана XVII –XX веков: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. М., 2000. 69-75.

Ingliz hukumatining ig'vogarlikdan iborat ultimatumini Sharqning ko'pchilik mamlakatlarida, ayniqsa Hindistonda Britaniyaga qarshi harakatni boshlab yubordi. 1924 yilning 1-yanvar oyi o'rtalarida xalifalikni mudofaa qilish Komitetining raisi Shavkat Ali Butun Hindiston xalifaligining sessiyasida shularni ma'lum qildi: “Endilikda har bir musulmon Buyuk Britaniyani tushunib oldi. Siz yer sharining turli qismidagi biror musulmondan islomning eng xavfli dushmani kim deb so'rasangiz, u: “Buyuk Britaniya”,— deb javob beradi. Hindiston hukumati boshliqlarni o'ldirishi mumkin, lekin xalifalik harakatini bostira olmaydi”¹. U Hindistondagi ingliz mustamlaka siyosatini tanqid qilib, musulmonlar harqanday urushga qarshilik ko'rsatadi, dedi. Shavkat Ali Angliyaning aybi bilan sodir bo'lgan ingliz- afg'on konflikti to'g'risida to'xtalib, Britaniya hukumati Afg'onistonni tinch qo'yishi kerak dedi, va Buyuk Britaniya qo'shni musulmon mamlakatlarga qarshi urush olib boradigan bo'lsa, faqat ingliz soldatlari ishtirokida va Angliyaning o'z mablag'i hisobiga olib borishi kerakligi “to'g'risida ogohlantirdi”.

Hindistonning ko'zga ko'ringan musulmon arboblari aka- .uka Alilarning ingliz-afg'on konflikti munosabati bilan Britaniyaga qarshi chiqishlaridan tashvishlangan ingliz ma'murlari hindlar bilan musulmonlar o'rtasidagi milliy nizodan foydalanishga urundilar. Ular aka-uka Alilar afg'on amiriga sotilgan va ular amirning himoyasida .Hindiston musulmonlari imperiyasi barpo etishga harakat qilmoqdalar, degan yolg'on xabar tarqatdilar². Ammo aka- uka Alilar bu tuhmatni rad qildilar. Shavkat Ali Hindistonning milliy kongressi majlislaridan birida so'zga chikib, hozirgi vaqtda Britan hukumati Afg'onistonga qarshi urush ochish uchun ig'vogarlik qilmoqda va “agar urush e'lon qilinsa, o'z akasi Muhammad Ali hamda ularga ergashuvchi hamma musulmonlar bilan birga hokimiyatga bo'ysunmaydigan grajdanlar kompaniyasi uyushtira boshlashini” aytdi. Angliya hukumatining afg'on hukumatiga yuborgan ultimatumini Eronda ham xuddi shunday kuchli norozichidikka sabab bo'ldi. 1923 yil 4 dekabrda Tehron

¹ Сальникова А. В. Англо-русское соперничество в Центральной Азии в последней трети XIX – начале XX в.: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Владимир, 2009.

² Hughes, Basil (1992). History of the Royal Regiment of Artillery: Between the Wars 1919–39. London: Brassey's. ISBN 0-08-040984-9.

shahrida bo'lib o'tgan ommaviy namoyish qatnashchilari "Angliyaning musulmon mamlakatlari mustaqilligiga qasd qilgan bosqinchilik siyosatiga keskin qarshi chiqdilar. Shunday ekan Afg'onsiton amalda siyosiy mustaqillikka erishgan bo'lsa ham, inglizlar buni qabul qila olmay, Afg'oniston borasida ingliz-rus raqobatchiligini to'xtatmadi.

Xulosa

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Angliya va Rossiya dunyoda o'z gegemonligini o'rnatish uchun hudud talashar edilar, hamda dunyoning barcha mintaqasida raqobatda edilar. Bu ikki davlatning raqobatchiligi nega aynan bu yurtga kelganda keskin tus olganligi bizni qiziqtirar edi. Yurtboshimiz I.A.Karimov "Afg'onistondagi voqealarning shunday yo'nalishda rivojlanishi, qarama-qarshilikning millatlar va ellatlar o'rtasidadagi majoroga aylanib ketishi, uning dunyo miqyosidagi jug'rofiy siyosiy jarayonlarga ta'sirini e'toborga olib uni mintaqaviy majorolari jumlasiga kiritishi mumkin"¹-degan edilar. Shunday qilib, Angliya va Rossiya manfaati bu hududda to'qnashdi, bu yerda tashqi harakatlarda Britaniya Hindistoni o'rtasida hukmronlik uchun bir geopolitik kurash XIX asr va XX asrdan "Katta O'yin" nomini olgan bir jarayon yuzaga kelgan edi. Bu ikki davlatlar uchun Afg'oniston muhimligi, Britaniya Rossiyaning Hintistonga yaqinlashib qolishidan qo'rqardi. Rossiya ham Turkistonga yaqinlashishidan qo'rqar edi. Shu asnoda ular bu yurtdagi qabilalar o'rtasida tinchlikni ta'minlash maqsadida kirishga harakat qildilar. Bu ikki kuchli davlatning Afg'onistonga kirishidagi maqsadi bir bahona edi. Angliya va Rossiyaning "Katta Oyin" va "Salobatli yurishlar"ida ular qandaydir bir maqsadlariga erishdilar, lekin tahliliy ko'radigan bo'lsak, bu yurtning ahli ancha zarar ko'rdilar. Bularni ular ham bilar edilar. Siyosiy jarayonlarda qandaydir bir tomondan Rossiya yengilganday tuyiladi, lekin ular bundan so'ng o'z ishlarini zimdan ish tutdilar. Bu davrda Angliya va Rossiyadan tashqari boshqa davlatlar ham bu jarayonlarga aralashishi vaziyatni qandaydir bir o'zgarishga olib keladi. Hozirgi vaqtda dunyoda qurol kuchidan ko'ra g'oya eng xavfli qurol bo'lib xizmat qilyapdi. Rossiya bu jarayonlarda uni Angliyadan oldinroq sezganligi va qo'llaganligi tadqiqot ishida namoyyon bo'ladi. Rasmiy xujjatlarda Afg'onistonni inglizlar ta'sir doirasidagi hudud deb, zimdan ish tutganligi - bu bir g'oyaviy kurash hisoblanadi. Bundan tashqari ikkinchi ingliz-afg'on urishiga ruslar sababchi bo'ldi degan fikrlar yo'q emas. Rus manbalarida buni rad etganligi va inglizlarni bu siyosiy jarayonlarda

¹ Karimov I. A. "O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak" T, O'zbekiston, 2013. B, 11-12.

ayblagan edilar. Bu ayblovlar deyarli rus manbalarining barchasida uchraydi. Ingliz manbalarida esa buning teskarisi ruslarning ayblarini ochib beradi. Xulosa o'rnida bu jarayonlarda Angliya va Rossiyaning ham birday ayblari bor inglizlar ochiqchasiga tahdid solgan bo'lsa, ruslar esa zimdan ish tutgan, ya'ni boshqa davlatlarning vositasida ish tutgan. Keyinchalik qandaydir bir bahonalar yuzaga kela boshladi. Bir qarasang ajratish siyosati, bir qarasang "bufer" rejasi hammasi bir safsata vositalar edi. Vaqtinchalik o'ylab topilgan o'yinchoq edi. Shunday qilib Rossiya "Katta O'yin"da qandaydir bir vaziyatda mag'libuyatga uchradi. Ammo kurashni davom ettirdilar.

Ikkinchi ingliz-afg'on urushi davrigacha Angliya faqat murosa yo'lini tanlab Rossiya bilan kelishishni boshlagan edi. 1879-yilgi Berlin Konferensiyasida ruslar Afg'onistonni inglizlar ta'sir doirasida deb tan olgandan so'ng inglizlar bir vaqt tinchlandi. Bundan sal oldin Nort Brukni o'rniga kelgan Lord Leytin Afg'oniston masalasida faqat qurol yo'li bilan amalga olishirish kerak degan fikrda edi. Shuning uchun qandaydir bir bahona bo'lsa, urushga tayyor edi va bunga Rossiya sababchi bo'lib qoldi. 1879-yilgi Rossiya delegatsiyasining Afg'onistonga kelishi ikkinchi-ingliz urushiga bahona bo'ldi. Rossiya ikkinchi ingliz-afg'on urushida sababchi bo'lib qolishni xohlamas edilar, lekin uning aksi bo'ldi va tezda Afg'onistondan chiqib ketdilar. Ruslarning ya'na bir ayyorligi shundan iborat ediki, afg'onlar bilan muzokaralarda inglizlarni yomonlab biz bilan hamkorlik qilinglar der edi, lekin inglizlar hujum qilgan vaqtda o'zlaring kelishib olinglar deb chetga chiqqan edi. Bu holat afg'onlarni hayron qoldirgan edi. Ikkinchi ingliz-afg'on urushidan keyin Yoqubxon Gandamak nomini olgan va afg'on xalqi uchun isnod bo'lgan bir shartnomani imzolashi, bu matonatli xalqning vatan mustaqilligi uchun kurash olib borishiga turtki bo'ldi va inglizlarning ustidan g'alaba qilishiga. Bundan tashqari 1873-yilgi ingliz-rus shartomasi natijasida chegaralarni aniqlash kerak edi, lekin ikkalasining ham paysalga solishi natijasida muzokaralar oxiriga yetmagan edi. Ko'rinib turibdiki, ikki davlat qandaydir bir chegarani tashkil qilishni xohlardi, lekin amalda hech qanday natijaga erishmas edilar. Barcha qilinishi kerak bo'lgan ishlar faqat qog'ozlarda qolib ketgan edi. Bu chegara 1887-yildagini o'z ishini

yakunlagan edi. Bundan tashqari 1893-yilgi Dyurand kelishuvini Abdurahmonxon va Britaniya o'rtasida imzolagan edi. Inglizlarning yana bir nayrangi hisoblangan bu kelishuv natijasida bir millat vakillari ikki hududga bo'linib qoldilar. Bundan tashqari ruslar dengizga chiqishdan mahrum bo'ldi. Bu inglizlarning bir nayrangi edi.

XX asrga kelganda ingliz-rus raqobatchiligining yangi bosqichi yuzaga keldi. Bu davrda ingliz va rus siyosatchilari endi afg'on xalqiga zo'rlik yo'li bilan o'zlariga qaratib olish mumkin emasligini bilib, ular bilan muzokaralar olib borish kerakligini tushinib yetdilar va bir qator shartnomalar imzolandi. Misol uchun 1905-yilgi kelishuvda inglizlar bu davlat bilan mojarolar qilish xohishi yo'qligini vaqtincha bildirib qo'ydilar. 1907-yildagi shartnoma esa Afg'oniston bilan o'zining hamma siyosiy munosabatlarini Britaniya hukumati vositasida olib borish majburiyatini oldi. Birinchi jahon urushida esa Afg'onistonda inglizlar hukmronligi to'laqonli o'rnatildi. Bu davrda nega ruslarning harakati sussaydi degan savol tug'iladi bu davrda ruslarning o'zida ham davlat to'ntarish ya'ni siyosiy g'alayonlar, tanglik holati edi. Shuning uchun ruslar Afg'onistonga bo'lgan davosini vaqtincha to'xtatishga majbur bo'lgan edi. Afg'oniston mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin ham ular o'z davolarini to'xtatmadi. Endi ochiqchasiga emas balki, zimdan ish tutar edilar. Shuni qo'shimcha qilib aytishim joizki, agarda Afg'oniston Angliya va Rossiyaningning siyosiy kurashiga qarshi mardonavor kurashganda va davlat siyosiy pog'onasida rusparast hamda ingliz parastlar bo'lmaganda edi, ular o'zlaridan o'zlari Afg'onistonga tahdid solmagan bo'lardi.

Prezident I.A.Karimov o'z asarida "Albatta bugun erkin, ozod yashayotgan avloq, endi urush bo'lmaydi degan ezgu niyat qat'iy ishonch bilan hayot kechirmoqda"¹ degan edi. Agarda ingliz va ruslarning Afg'onistonni siyosiy maydonga aylantirishida afg'on xalqi mardonavor kurashganda edi, bunday hol yuzaga kelmagan bo'lar edi.

¹ Karimov I. A. Tarixiy xotira va inson omili buyuk kelajagimizning garovidir", O'zbekiston. 2012, 9-bet.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

- 1.1. Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat. –T.: “O'zbekiston”, 1994.
- 1.2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. –T.: “O'zbekiston”, 1994.
- 1.3. Karimov I. A. Turkiston – umumiy uyimiz. –T.: “O'zbekis-ton”, 1995.
- 1.4. Karimov I. A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. –T.: “Sharq”, 1998.
- 1.5. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. –T.: “O'zbekis-ton”, 1998.
- 1.6. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz nomli asarida. 7-jild. –T.: “O'zbekiston”, 1999.
- 1.7. Karimov I. A. Tarixiy xotiasiz kelajak yo'q. –T.: “Sharq”, 1999.
- 1.8. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.–T.: “O'zbekis-ton”, 2000.
- 1.9. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”,
- 1.10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi , O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T., “O'zbekiston” 2009
- 1.11. Karimov I. A. “Tarixiy xotira va inson omili buyuk kelajagimizning garovidir, “O'zbekiston” HMIU. 2012.
- 1.12. Karimov I. A. XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari,-T, 1997.
- 1.13. Karimov I. A. O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak,-T., “O'zbekiston” 2013.

II. Kitoblar va maxsus adabiyotlar

- 2.1. Коргун В. Г. История Афганистана. XX в. М., 2004.
- 2.2. Симонов К.В. Афганистан в политике великих держав и Османской империи на Среднем Востоке. 1899-1918: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Воронеж, 2001.
- 2.3. Коргун В. Г. Формирование и эволюция политической системы современного Афганистана, 1919-1999 гг.: Дис. ... канд. ист. наук. М., 2000.

- 2.4. Лалетин Ю.П. Этнополитические процесс в истории Афганистана XVII –XX веков: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. М., 2000.
- 2.5. Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990.
- 2.6. Каландарова М. С. Геополитика Англии в Афганистане в первой половине XIX в.: Миссия в Кабуле. М., 1995
- 2.7. Князев А. А. Афганский кризис и безопасность Центральной Азии (XIX - начало XXI вв.). Душанбе, 2004.
- 2.8. Имомов Ш. История общественной мысли Афганистана во второй половине XIX – первой половине XX в. М.- Душанбе, 2001
- 2.9. Тихонов Ю.Н. Политика великих держав в Афганистане и пуштунские племена (1919-1945). М.-Липецк, 2007.
- 2.10. Сохибназар Муроди. Кабул в исторических источниках: Дис. ... к. и. н. Душанбе, 2003.
- 2.11. Фридам А . Реформы в Афганистане (1919-1939 гг.): этапы, достижения, противоречия. М., 2001.
- 2.12. Сальникова А. В. Англо-русское соперничество в Центральной Азии в последней трети XIX – начале XX в.: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Владимир, 2009
- 2.13. Егорычев Н.Г. Политик и дипломат. М., 2006.
- 2.14. Данков А. Г. Отечественная и британская историография о соперничестве России и Великобритании в Центральной Азии (XIX – начало XX в.): Дис. ... канд. ист. наук. Томск, 2009.
- 2.15. Давыдов А. Г. Топонимика Афганистана как исторический источник. М., 2010.
- 2.16. Бойко В. С. Власть и оппозиция Афганистане: особенности политической борьбы в 1919-1953 гг. М. Барнаул, 2010.
- 2.17. Богатуров А. Д., Дундич А. С., Коргун В. Г. Международные отношения в Центральной Азии. События и дакументы. Учеб. Пособие. М.,2011

- 2.18. Фармонов Р, Содиков О. Жахон тарихи. Т., “Мерос”.2004.
- 2.19. Халфин Н.А. Провал Британской агрессии в Афганистане. XIX в начало XX в М., 1959.
- 2.20. Hidoyatov G.A. Из истории Англо - русских отношений в Средней Азии. Т. Фан. 1969.
- 2.21. Халиулла В. Восстание и правление эмира Хабибуллы и Бачяи Сакао (январь – октябрь 1929 года) в Афганистане. М., 1996.
- 2.22. Хмелевская З. А. Первый том “Сирадж ат-таварих” как источник по истории Афганистана первой половины XIX века: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. СПб., 1998.
- 2.23. Фахима П. Труд Махмуда Тарзи Айч че байяд кард? Как источник по новой и новейшей истории Афганистана: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. М, 1996
- 2.24. Босин Ю. В. Афганистан: полиэтническое общество и государственная власть в историческом контексте. М., 2002.
- 2.25. Мухаммад Шариф Шарифи. Проблемы развития образования в Афганистане: Дис. ... канд. педаг. наук. Душанбе, 2010.
- 2.26. Мухин Ю. И. Афганский фронт СССР. М., 2009.
- 2.27. Панин С. Б. Россия и Афганистан. 1905-1918. Иркутск, 1995.
- 2.28. Панин С. Б. Советский Союз и Афганистан. 1919-1929 гг. М. – Иркутск, 1998.
- 2.29. Ромодин В. А. Афганистан во второй половине XIX – начале XX вв.: Официальная история и историография. М., 1990.
- 2.30. Мохаммад Д. Законодательные акты эмира Амануллы-хана как исторический источник (1919-1929): Афтореф. дис. ... канд. ист. наук. М, 1995.
- 2.31. Мохаммадулла Бадаш. Младоафганское движение: истоки, сущность, основные этапы (1990-1929): Афтореф. дис. ... канд. ист. наук. М, 1995.
- 2.32. Мохаммад Хорун. Проблемы традиции в афганской культуре (1901-1993 гг.): Афтореф. дис. ... канд. истор. наук. М, 1996.

- 2.33. Мир Хоссейн. Афганистан в международных отношениях второй половины XIX века: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. М, 1995.
- 2.34. Григорьев С Е., Болдырев А. Н. Тарих-и Бадахшан. История Бадахшана. М., 1997.
- 2.35. Зохидов О. М. Основные вопросы истории Афганистана и русской дореволюционной и советской историографии: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1991.

III Internet ma'lumotlari

- 3.1 <http://www.grandars.ru/college/sociologiya/upravlenic-politicheskim-konfliktom.html>.
- 3.2 http://en.wikipedia.org/wiki/Central_Intelligence_Agency.
- 3.3 <http://www.infoplease.com/encyclopedia/world/afghanistan-history.html>.
- 3.4 <http://www.usnews.com/debate-club/should-the-us-withdraw-from-afghanistan-sooner>.
- 3.5 <http://www.afghanistanstudygroup.org/2012/01/04/withdraw-troops-from-afghanistan-but-stay-engaged>.
- 3.6 http://www.transparency.org/policy_research/surveys_indiees_2009-2009_taple.
- 3.7 <http://www.thomaspmbarnett.com/globlogization/2010/6/14/afghanistan-minerals-deposits-now-super-sized-by-us-geologi.html>.
- 3.8 <http://siteresources.worldbank.org/INTREMNET/Resources/EP5.pdf>
- 3.9 <http://www.worldwatch.org/node/6088>.
- 3.10 <http://www.usip.org/files/McMahon%20USIP%20presentation%20Aynak.pdf>.

IV Inlizva dariy tillaridagi adabiyotlar:

3. R. P. Churchill, *The Anglo-Russian Convention of 1907*, Cedar Rapids, Iowa, 1939.
- 3.1. General Staff Branch, Army Headquarters India (2004) [1926]. *The Third Afghan War, 1919: Official Account*. Uckfield, East Sussex: Naval & Military Press. OCLC 63665705.
- 3.2. Barthorp, Michael (2002) [1982]. *Afghan Wars and the North-West Frontier*

- 1839–1947. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8.
- 3.3. Hughes, Basil (1992). History of the Royal Regiment of Artillery: Between the Wars 1919–39. London: Brassey's. ISBN 0-08-040984-9
 - 3.4. Loyn, David (2009). Butcher & Bolt: Two Hundred Years of Foreign Engagement in Afghanistan. London: Windmill Books. ISBN 978-0-09-952263-8.
 - 3.5. Molesworth, George (1962). Afghanistan 1919—An Account of Operations in the Third Afghan War. New York: Asia Publishing House. OCLC 7233999.
 - 3.6. Singer, Andre (1984). Lords of the Khyber: The Story of the North-West Frontier. London: Faber and Faber. ISBN 978-0-571-11796-3.
 - 3.7. Omissi, David E. (1990). Air Power and Colonial Control: The Royal Air Force, 1919–1939. New York: Manchester University Press. ISBN 0-7190-2960-0.
 - 3.8. Robson, Brian (2007). Crisis on the Frontier: The Third Afghan War and the Campaign in Waziristan 1919–1920. The History Press. ISBN 1-86227-403-7.
 - 3.9. Elliott, James (1968). The Frontier 1839–1947. London: Cassell. OCLC 46160081.
 - 3.10. افغانستان در مسیر تاریخ، غبار
 - 3.11. محمد ابراهیم عطایی "تاریخ معاصر افغانستان" کابل - افغانستان، 2010،
 - 3.12. فضل ربی پژواک بین المللی روابطو تاریخ، کابل،
 - 3.13. عزیز نعیم. افغانستان مرکز ثقل بازی بزرگ، مقاله افغانستان آزاد، شماره سوم پشاور،
 - 3.14. ترجمه متن به صورت اختیاری و آزاد از جلد دوم افغان نامه از صفحه 133 گرفته شده است.
 - 3.15. دیواک اوف ارگیل (مسأله افغان) مترجم فرهنگ، کابل،
 - 3.16. داکتر محمود افشار، افغان نامه، جلد 2، ایران،